

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABJALOVA MANZURA ABDURASHETOVNA

O‘ZBEK TILI ONTOLOGIYASINI YARATISH TAMOYILLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Abjalova Manzura Abdurashetovna О‘zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari	5
Abjalova Manzura Abdurashetovna Principles of creating an ontology of the Uzbek language	38
Abjalova Manzura Abdurashetovna Принципы создания онтологии узбекского языка	72
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	78

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ABJALOVA MANZURA ABDURASHETOVNA

O‘ZBEK TILI ONTOLOGIYASINI YARATISH TAMOYILLARI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4DSc/Fil364 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universitetining veb-sayti (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.


Ilmiy maslahatchi:	Dadaboyev Hamidulla Aripovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Hoshimov G'anijon Mirzaaxmetovich filologiya fanlari doktori, professor Urinbayeva Dilbar Bazarovna filologiya fanlari doktori Eshref Adali texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti


Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil "5" aprel soat 11 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (159 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100100, 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil 24 mart kuni tarqatildi.
(2022-yil 24 mart dagi raqamli reyestr bayonnomasi).


Sh. Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, filol. f.d., professor


M. Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol. f.n., dotsent


A. Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, filol. f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson faoliyatining bilim talab qiladigan zamonaviy sohalari rivojlanishi kompyuter texnologiyalari rolining oshishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda axborot oqimi sezilarli darajada ko‘paymoqda, endi ularni saqlash, taqdim etish, formallashtirish va tartibga solish, shuningdek, avtomatik qayta ishlashning yangi usullarini izlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois turli amaliy maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, inson omilisiz matndan har qanday ma‘lumotni chiqarib oluvchi neyro-to‘rlarga asoslangan tizimlarga ehtiyoj katta. XX asr yarimida butunjahon tarmog‘i bilan bir qatorda Semantik vebalar paydo bo‘ldi, unda gipermatnli sahifalardagi elementlar semantikasi haqida axborot tashuvchi qo‘shimcha teglar bilan ta‘minlandi. Semantik vebning ajralmas qismi ontologiya tushunchasi bo‘lib, u so‘zlar tarmog‘idan iborat leksik ma‘lumotlar bazasi hisoblanadi.

Dunyo amaliy tilshunosligi va kompyuter lingvistikasida axborot qidiruv imkoniyatini oshirish, avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish, matnlarni komponent tahlil qilishga erishish, tilning lug‘at boyligini aks ettirish maqsadida yaratilgan lingvistik ontologiyalar tezauruslardan tildagi semantik munosabatlarning o‘zaro tarmoqlanishi bilan ajralib turdi. Natijada WordNet ingliz tili leksik ma‘lumotlar bazasi asosida boshqa ko‘plab tillar resurslarini yaratish keng tus oldi. Shu sababli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), tilni lingvistik modellashtirish, so‘z turkumlarini teglash, tilda semantik munosabatlar to‘plami (sinonimiya, meronimiya, giperonimiya, antonimiya)ni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Hozirda o‘zbek tilshunosligi va kompyuter lingvistikasida sun‘iy intellekt uchun tilni formallashtirish, lingvistik modellarni yaratish, kiberleksikografiyada amaliy natijalarga erishish, ayniqsa “...davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash”¹, o‘zbek tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta‘minlash², grammatik va semantik tahlil tizimlarini yaratish, buning uchun o‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, amaliy loyihalar bajarilmoqda. Natijada amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasining matnlarni qayta ishlash, nutq sintezatorini yaratish, nutqni tanish, mashinali ta‘lim, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), kompyuter tarjimasini, korpusshunoslik sohasi, kompyuter leksikografiyasi va lingvodidaktikasi yo‘nalishlarining rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. Endilikda o‘zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirish, milliy tilimizning imkoniyatlarini kengaytirish, tarjimon dastur va tizimlarini yaratish, global tarmoqda o‘zbek tilida axborot qidiruvi imkoniyatlarini oshirish maqsadida jahon tajribasiga tayangan holda semantik munosabatlarga asoslangan, so‘zlar tarmog‘iga ega, o‘zida o‘zbek tilining butun leksik boyligini jamlagan UzNet ontologik tizimini yaratish dolzarb

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6048-сон Фармони.
<https://lex.uz/ru/docs/5058351>

² Mazkur Farmon.

hisoblanib, bu borada ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati o'z yechimini kutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi"da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash ustuvor yo'nalishida belgilangan vazifalar, 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi PQ-4996-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2020-yil 29-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Terminlar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 40-son qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³

Jahon amaliy tilshunosligi va kompyuter lingvistikasi va axborot texnologiyalari sohalarida WordNet asosidagi lingvistik resurslar ta'minotini o'rganish va yaratishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Princeton universiteti, Sent-Luis universiteti (AQSh), Janubiy Afrika universiteti, Janubiy Afrika raqamli til resurslari markazi (Pretoriya, Janubiy Afrika), Vlore universiteti (Albaniya), Milliy elektronika va kompyuter texnologiyalari markazi (Yaponiya), Tailand hisoblash lingvistikasi laboratoriyasi (Tailand), Basklar mamlakati universiteti, Kataloniya Texnika universiteti (Kataloniya), Hindiston statistika instituti, Hindiston Texnologiya Instituti (Hindiston), Bolgariya tili instituti, Bolgariya Fanlar akademiyasi (Bolgariya), Patras universiteti (Gretsiya), Ontologiya, tillarni qayta ishlash va

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.princeton.edu, <https://aclanthology.org/W98-0709.pdf>, <https://pythonprogramming.net/wordnet-nltk-tutorial/>, <http://wordnet.ru/>, <http://www.globalwordnet.org>, <https://scholar.google.com>, <https://www.researchgate.net>, <https://www.aclweb.org/anthology/L16-1207.pdf>, <https://acikerisim.isikun.edu.tr/>, www.navoiy-uni.uz, <http://uzschoolcorpara.uz/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

elektron gumanitar fanlar laboratoriyasi, Tayvan milliy universiteti, Xitoy-Taypey Respublikasi (Tayvan), Zagreb universiteti (Xorvatiya), Charlz universiteti, Rasmiy va amaliy tilshunoslik instituti (Chexiya), Sprogteknologi markazi, Kobenhavns universiteti, Daniya tili va adabiyoti jamiyati (Daniya), Vrije Universiteti (Niderlandiya), Amsterdam universiteti (Niderlandiya), Sheffild universiteti (Angliya), Tartu universiteti (Estoniya), Helsinki universiteti (Finlyandiya), Parij diderot universiteti, Avignon universiteti, Memodata kompyuter laboratoriyasi (Fransiya), Tübingen Universiteti (Germaniya), Hayfa universiteti (Isroil), (Mumbay, Hindiston), Seged universiteti (Vengriya), Kompyuter tilshunosligi instituti, Bruno Kessler jamg'armasi, Aloqa va axborot texnologiyalari markazi, Inson tili texnologiyalari guruhi, Verona universiteti (Italiya), Yaponiya Milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari instituti (Yaponiya), Pusan milliy universiteti (Janubiy Koreya), Kurdiston universiteti (Kurdiston), Latviya universitetining matematika va informatika instituti (Latviya), Kiril va Mefodiya universiteti, Staffordshire universiteti (Angliya), Malta universiteti (Malta), Moldova Fanlar akademiyasi Matematika instituti va Katmandu universiteti (Moldova), Bergen universiteti (Norvegiya), Shahid Beheshti universiteti, Eron telekommunikatsiya tadqiqotlari markazi (Tehron, Eron), Tehron universiteti, NLP laboratoriyasi (Tehron, Eron), Vroslav fan va texnologiya universiteti (Polsha), Adam Miskevich universiteti (Poznan, Polsha), Coimbra universiteti (Portugaliya), Getulio Vargas universiteti, Amaliy matematika maktabi (Rio-de-Janeyro, Braziliya), Lissabon universitetining tilshunoslik markazi (Portugaliya), Aleksandru Ioan Kuza universiteti, Ruminiya akademiyasi, Buxarest sun'iy intellekt instituti, Sun'iy intellekt instituti, Ruminiya akademiyasi (Ruminiya), Sankt-Peterburg universiteti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), Belgrad universitetining Matematika fakulteti (Serbiya), Moratuva universiteti (Moratuva, Shri-Lanka), Lyublyana universiteti, Jozef Stefan instituti (Sloveniya), Gothenburg shved universiteti (Shvetsiya), Turk tili va nutqni qayta ishlash markazi (Turkiya), INHA universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligi va axborot texnologiyalari sohalarida til hamda dunyo bilimlarini aks ettiruvchi ontologiyalarni yaratish mezonlari, axborot-qidiruv tizimi samaradorligini oshiruvchi tezauruslarni yaratish tamoyillari, ontologiya va tezauruslarni yaratish tadqiqiga oid olib borilgan izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar olingan: ontologiyani yaratishning nazariy aspektlari (Princeton universiteti, AQSh, Moskva davlat universiteti, Rossiya, Ontologiya, tillarni qayta ishlash va elektron gumanitar fanlar laboratoriyasi, Tayvan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston), lingvistik ontologiya va tezauruslar tushunchalari tadqiq etilgan ularning mushtarak hamda farqli jihatlari yoritilgan (Sent-Luis universiteti, AQSh, Moskva davlat universiteti, Rossiya, Turk tili va nutqni qayta ishlash markazi, Turkiya), turlari tavsiflangan (Moskva davlat universiteti, Buxarest sun'iy intellekt instituti, Sun'iy intellekt instituti, Ruminiya akademiyasi), matnning avtomatik tahlil va

tabiiy tilni qayta ishlashdagi ahamiyati yoritilgan (Yaponiya Milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari instituti, Yaponiya, Tübingen Universiteti, Germaniya, Kompyuter tilshunosligi instituti, Bruno Kessler jamg'armasi, Aloqa va axborot texnologiyalari markazi, Inson tili texnologiyalari guruhi, Verona universiteti, Italiya), axborot-qidiruv tizimidagi o'rni, ontologiyalarning til va dunyo bilimlarini aks ettirishi tahlil qilingan (Tehron universiteti, NLP laboratoriyasi, Eron, Hindiston statistika instituti, Hindiston Texnologiya Instituti, Hindiston), Princeton WordNet bazasi zamirida til ontologiyasini yaratish imkoniyatlari va nazariy metodologiyasi (sharhning 1-xatboshida keltirilgan barcha muassasalarda) lingvistik ontologiya asosida tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasi (Vroslav fan va texnologiya universiteti, Polsha, Sheffild universiteti, Angliya), ko'p tilli bilimlarni izlash va olish tizimlarini yaratish uchun turkiy tillarning elektron tezaurusi ishlab chiqish ustida ishlar bajarilmoqda (Qozoq universiteti, Almata).

Jahon tilshunosligida lingvistik ontologiyani yaratish va WordNet zamiridagi lingvistik resurlarni takomillashtirish, axborot-qidiruv tizimi imkoniyatini oshirish, milliy ontologiyalar va ko'p tilli ontologiyalarni yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarida tabiiy tilni qayta ishlash, til korpuslari asosida leksik ma'lumotlar bazalarini yaratish va takomillashtirish, mashina tarjimai uchun multitilli ontologiyani yaratish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorij amaliy tilshunosligi va kompyuter lingvistikasi sohalarida lingvistik (semantik) ontologiyalarni yaratish masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tilshunoslik ontologiyasi mazkur sohada yangi tushuncha emas, ammo zamonaviy talqinda ular XX asrning oxiridan boshlab qo'llanila boshlandi.

Lingvistik ontologiyani yaratish, iyerarxiyal bazani shakllantirish, sohalar bo'yicha terminologik bazalarni yaratish, semantik munosabatlarni tadqiq etish, tezaurus lug'atlar asosida til ontologiyasini yuzaga keltirish borasida jahon kompyuter lingvistikasi va axborot texnologiyalari sohalarida J.Miller⁴, K.Fellbaum⁵ (Princeton WordNet mualliflari), A.Burgen, O.Bodenreider; K.Kunze, A.Vagner⁶ (nemis tili ontologistlari), L.Bentivogli, E.Pianta (hind tili ontologistlari), M.Buenaga Rodriguez, J.Gomez-Hidalgo⁷ (bolgar tili

⁴ Miller G. Nouns in WordNet. In: Fellbaum, C (ed) WordNet – An Electronic Lexical Database. – The MIT Press. 1998. – pp.23-47.; Miller G., Fellbaum C. Morphosemantic links in WordNet. – Traitement automatique de langue, 44.2. 2003. – pp. 69-80.; Miller G., Hristea F. WordNet Nouns: Classes and Instances. – Computational linguistics, Volume 32, Number 1. 2006. – pp.1-3.; Miller K. Modifiers in WordNet. In: Fellbaum, C (ed) WordNet – An Electronic Lexical Database. – The MIT Press. 1998. – pp .47-68.

⁵ Fellbaum Ch. A Semantic Network of English Verbs. – In: Fellbaum, C (ed) WordNet – An Electronic Lexical Database. – The MIT Press. 1998. – pp. 69-104.

⁶ Kunze C., Wagner A. Integrating GermaNet into EuroWordNet, a multilingual lexically semantic database. In: Sprache und Datenverarbeitung – International Journal for Language Data Processing. Bonn. 1999.

⁷ Burgun A., Bodenreider O., Aubry M., Mosser J. Dependence relations in Gene Ontology: A preliminary study. Workshop on The Formal Architecture of the Gene Ontology. – Leipzig, Germany, May 28-29. 2004.; Buenaga Rodriguez M., Gomez-Hidalgo J., Diaz-Agudo B. 1997 Using WordNet to complement training information in text categorization // In Proceedings of the 2nd International Conference on Recent Advances in Natural Language Processing (RANLP 1997), Bulgaria. 1997. – pp. 150-157.

ontologislari), N.Guarino⁸, P.Guaretta (formal ontologiya va axborot tizimlari bo'yicha mutaxassis) samarali faoliyat olib borishgan.

Rus tilshunoslaridan N.V.Lukashevich (RuThez – rus tili ontologiyasini yaratish bo'yicha loyiha rahbari, ontologist)⁹, V.B.Dobrov (fan sohasi matnlari uchun terminologik iboralar bazasini shakllantirish)¹⁰, I.B.Azarova (RussNet lingvistik resursini asosiy yaratuvchisi va axborot-qidiruv tizimlari ontologiyasi bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirgan)¹¹, O.A.Nevzorova (yangi fan sohalari ontologiyalarini ishlab chiqish texnologiyasi)¹², A.S.Narinyan (TEON: Tezaurus+Ontologiya loyihasi asosida ontologik tadqiqotlarni amalga oshirgan)¹³, B.B.Morkovkin (ideografik lug'at tuzgan), shuningdek, Markaziy Osiyodan A.Sharipbayev¹⁴ (qozoq tilini qayta ishlash va turkiy tillar ontologiyasini yaratish bo'yicha izlanish olib bormoqda) faoliyat olib borishgan.

⁸ Guarino N. Formal Ontology and Information Systems. In N. Guarino, editor, Proceedings of the 1st International Conference on Formal Ontologies in Information Systems, FOIS'98, Trento, Italy, IOS Press. 1998. – pp. 3-15.; Guarino N., Giaretta P. Ontologies and Knowledge Bases: Towards a Terminological Clarification. In N. Mars (ed.) Towards Very Large Knowledge Bases: Knowledge Building and Knowledge Sharing 1995. IOS Press, Amsterdam. 1995. – pp. 25-32.

⁹ Лукашевич Н.В., Автоматизированное формирование информационно-поискового тезауруса по общественно-политической жизни России // НТИ. Сер.2. – 1995. – N 3. – С.21-24.; Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Тезаурус русского языка для автоматической обработки больших текстовых коллекций // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международного семинара Диалог'2002 / Под ред. А.С.Нариньяни. – Т.2. – М.: Наука – 2002.– С.338-346.; Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Отношения в онтологиях для решения задач информационного поиска в больших международных текстовых коллекциях. Девятая национальная конференция по искусственному интеллекту с международным участием КИИ-2004 (28 сентября-2 октября 2004 г., Тверь). Труды коференции. В 3-х т. – Т2. – М.: Физматлит, 2004. – С.544-551.; Лукашевич Н.В. Моделирование отношения ЧАСТЬ-ЦЕЛОЕ в лингвистических и онтологических ресурсах. Информационные технологии. – 2007. – N 12.; Лукашевич Н.В. Проблемы установления родовидовых отношений в лингвистических онтологиях. – Материалы Всероссийской конференции «Знания – Онтологии – решения» (ЗОНТ-07). – С.211-220.;

¹⁰ Добров Б.В., Лукашевич Н.В., Сыромятников С.В. Формирование базы терминологических словосочетаний по текстам предметной области. Труды пятой всероссийской научной конференции “Электронные библиотеки: Перспективные методы и технологии, электронные коллекции. – 2003. – С. 201-210.; Добров Б.В., Лукашевич Н.В. Онтологии для автоматической обработки текстов: описания понятий и лексических значений. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: Труды международной конференции “Диалог'2005 / Под ред. И.М. Кобозевой, А.С. Нариньяни, В.П. Селегея. – М.: Наука, 2005. – С.138-142.; Добров Б.В., Лукашевич Н.В. Вторичное использование лингвистических онтологий: изменение в структуре концептуализации. Восьмая Всероссийская научная конференция «Электронные библиотеки: перспективные методы и технологии, электронные коллекции» (Владимир-Суздаль, 16-18 октября 2006 г.). 2006.; Добров Б.В., Лукашевич Н.В. Транзитивные нетаксономические отношения в онтологическом моделировании. Труды симпозиума Онтологическое моделирование. Институт проблем информатики РАН, 2008. – С.229-259.

¹¹ Азарова И.В., Митрофанова О.А., Синопальникова А.А. Компьютерный тезаурус русского языка типа WordNet // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международной конференции Диалог'2003. М., 2003. – С . 43-50.; Азарова И.В., Синопальникова А.А., Яворская М.В. Принципы построения wordnet-тезауруса RussNet. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международной конференции Диалог'2004. М., 2004. – С. 542-547.; Азарова И.В., Синопальникова А.А., Смирж П. Представление устойчивых лексических сочетаний в компьютерном тезаурусе RussNet. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международной конференции Диалог'2005. М., 2004. – С. 11-16.

¹² Добров Б.В., Лукашевич Н.В., Невзорова О.А. Технология разработки онтологий новых предметных областей. Труды Казанской школы по компьютерной лингвистике TEL-2002. Выпуск 7. / Под ред. В.Г.Бухараева, В.Д.Соловьева, Д.Ш.Сулейманова – Казань: Отечество, 2002. – С.90-106.

¹³ Нариньяни А.С. Кентавр по имени ТЕОН: Тезаурус+Онтология. Труды Международной конференции ДИАЛОГ-2001. – Т.1. – М., 2001.– С.184-188.

¹⁴ Вычислительная обработка казахского языка. Сборник научных трудов / Под редакцией Рахимовой Д.Р. – Алматы: Қазақ университеті, 2020. – 147 с.

Lingvistik ontologiyani yaratish va qo‘llash bo‘yicha ko‘plab ishlar Rossiyada va xorijda amaliy tilshunoslik sohasida olib borilgan va hozirda jadal ravishda davom etmoqda. Ushbu tadqiqotda J.Miller va K.Fellbaum P. Butelaar, F.Chimiano, P.Haaza, B.V.Dobrov, N.V.Lukashevich, O.Narinyan, I.Azarovanning eng muhim tadqiqotlarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, eng yirik lingvistik ontologiyalar – SUMO, OMEGA, DOLCE, Princeton WordNet, KeNet, RuThez va RussNet kabi ontologiya hamda tezauruslar o‘rganildi, tahlil qilindi, zarur o‘rinlarda munosabat bildirildi. Natijada o‘zbek tili ontologiyasini yaratish bo‘yicha metodologik bilimlar o‘zlashtirildi, muayyan sohaga xos bo‘lgan ma’lumotlarni qayta ishlashga imkon beruvchi tajribalar orttirildi. Buning natijasida esa “O‘zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasi” ishlab chiqildi.

O‘zbek tili lingvistik ontologiyasini yaratish bo‘yicha izlanishlar o‘zbek kompyuter lingvistikasi (O‘KL) sohasida amalga oshirilmoqda. Asosan, WordNet tizimi asosida tezaurus lug‘atlar va ontologik resurslarni yaratish borasida bir qancha maqolalar e‘lon qilingan. O‘KL o‘z taraqqiyoti davomida ko‘plab nazariy va amaliy tadqiqot ishlari bilan boyitib borilmoqda. XX asr oxirlarida shakllangan O‘KL ikki bosqichli taraqqiyot davriga ega deyish mumkin. Birinchi bosqich davriy nashrlar va bir qancha badiiy adabiyotlarda eng ko‘p foydalanilgan so‘zlar chastotasini aniqlab beradigan dastur yordamida ilmiy tadqiqot ishlari va bir qancha chastotali lug‘atlarning yaratilishi, o‘quv adabiyotlarining yaratilishi bilan belgilanadi. Ushbu davrni, o‘z o‘rnida, ikki bosqichga ajratish mumkin: XX asrning oxiridan XXI asrgacha bo‘lgan davr. Uning namoyondalari S.Muhamedov, T.Sodiqov, H.Arziqulov, M.Ayimbetov, S.Rizayev,¹⁵ hisoblanadi. Ikkinchi bosqich esa 2001-yildan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida “Kompyuter lingvistikasi” laboratoriyasi ochilishi va fanning ta’lim tizimida joriy etilishi bilan belgilanadi hamda XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mazkur natijalar O‘KL rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan A.Po‘latov sa’y-harakatlari bilan amalga oshirilgan. Bu davrda aynan kompyuter lingvistikasi o‘quv adabiyotlarining yaratilishi¹⁶ va tadqiqotlarning rivojlanishiga erishilgan¹⁷ va A.Po‘latov, A.Rahimov, S.Muhamedova, N.Jo‘rayeva,

¹⁵ Мухамедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Тошкент, 1980. – 25 с.; Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Т.: Фан, 1986.; Садыков Т. Проблемы моделирования тюркской морфологии. – Фрунзе, 1987.; Арзикулов Х.А., Пиотровская К.Р. Информатика и переработка текста средствами вычислительной техники (учебное пособие). – Самарканд, 1986.; Айымбетов М.К. Проблемы и методы квантитативно-типологического измерения близости тюркских языков (на материалах каракалпакского, казахского и узбекского языков): Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Т., 1997. – 47 с.; Айымбетов М.К. Проблемы и методы квантитативно-типологического измерения близости тюркских языков (на материалах каракалпакского, казахского и узбекского языков): Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Т., 1997. – 47 с.; Ризаев С. Ўзбек тилишунослигида лингвостатистика муаммолари (монография). – Тошкент: Фан. 2005. – 295 б.; Shu muallif. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 50 б.; Айымбетов М.К. Квантитативная типология тюркского текста (сборник избранных статей). – Нукус.: Илим. 2012.

¹⁶ Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo‘llanma). – Toshkent, 2007.; Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2008 – 98 b.; Pўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 520 b.; Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160 b.

¹⁷ Пўлатов А.К., Алиходжаев Б., Джураева Н. Разработка программы компьютерного анализа и синтеза глаголов узбекского языка // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2002. №2. – С. 17-19.; Po‘latov A.Q., Mo‘minova T.,

U.Dusimova, N.Valiyeva, M.Abjalova, N.Abdurahmonova tomonidan ba'zi bir nazariy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

2018-yillarga kelib O'KLda jadal ravishda nomzodlik va doktorlik ishlarining amalga oshirilishi o'z davrining ikkinchi bosqichiga o'tishida zamin bo'ldi. Bu davrda o'zbek tili mualliflik korpusini tuzish tamoyillari¹⁸, o'zbek-ingliz tili mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti¹⁹, janriy-lisoniy va lingvostatistik tadqiqot masalalari²⁰, o'zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik modullari²¹, til korpusi lingvistik bazasini tuzish tamoyillari²², o'zbek tili atov birliklarini semantik teglashning lingvistik asoslari²³, o'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti muammolari²⁴ monografik planda o'rganilgan. O'KLda kompyuter lingvistikasining bir qancha yo'nalishlarida e'tiborga molik ishlar qilingan bo'lsa-da, o'zbek tili ontologiyasini tuzish masalasi bo'yicha maxsus tadqiqot ishi bajarilmagan.

XXI asrning 20-yillariga kelib, amaliy natijalarga ega tadqiqotlarning amalga oshirilishi, turli lingvistik dasturlar (avtomatik tahrir va tahlil (Ubuntu Linux tizimi uchun matnlarni avtomatik tahlil qilish dasturi²⁵), transliteratsiya, mobil ilovalari)ning yaratilishi (1) va Respublikamizning oliy ta'lim muassasalari (ToshDO'TAU, O'zMU, SamDCHTI, UrDU)da Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi bo'yicha magistratura bosqichining ochilishi (2) bilan KL o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tdi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bir guruh mutaxassis olimlar sa'y-harakati natijasida O'zbek tilining ta'limiy korpusi²⁶ yaratilishi bilan O'zbek tili Milliy korpusiga tamal toshi qo'yildi.

“O'zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari” mavzusidagi mazkur tadqiqot UzNet leksik ma'lumotlar bazasini yaratishning samarali yondashuvlarini tanlashga va “O'zbek tili lingvistik ontologiyasini yaratish konsepsiyasi”ni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot

Po'latova I.O. Dunyoviy o'zbek tili (O'zbek tilida fe'lning shakllari va ularning rus, ingliz tillarida berilishi). – Toshkent: Universitet, 2003. – 404 b.; Muhamedova S. O'zbek tilidagi harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish. – Toshkent, 2006. – 80 b.

¹⁸Xamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. – Qarshi, 2018. – 250 b.

¹⁹Abduraxmonova N.Z. Inglizcha matnlarni o'zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta'minoti (Sodda gaplar misolida): Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. aytoref. – Toshkent, 2018. – 52 b.

²⁰O'rinboyeva D. Xalq og'zaki ijodi: janriy-lisoniy va lingvostatistik tadqiqot muammolari: Filol. fan. dokt. (DSc) ...diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 74 b.

²¹Abjalova M.A. O'zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari (Rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar tahriri dasturi uchun): Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Farg'ona, 2019. – 164 b.

²²Eshmo'minov A.A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi: Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. – Qarshi, 2019. – 140 b.

²³Ahmedova D. Atov birliklarini o'zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: Filol.fan.bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. – Buxoro, 2020. – 156 b.

²⁴Xamroyeva Sh. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti. Filol.f.d. diss. avtoref. – Farg'ona, 2021. – 78 b.

²⁵Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. Monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.

²⁶AM-FZ-201908172 raqamli “O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universitetida bajarilayotgan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi AM-FZ-201908172 raqamli amaliy loyihasi doirasida hamda “O‘zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasi” asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiya va sun’iy intellekt uchun lingvistik ontologiyalarni yaratish tamoyillari va leksik ma’lumotlar bazalari tuzilishini tadqiq etish hamda UzNet – o‘zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ma’lumot qidirishda birlamchi manbalardan tezaurus va ontologiya konseptlarini tavsiflash, ahamiyatini yoritish va lingvistik ontologiya ta’rifini muayyanlashtirish;

ingliz tilining yirik leksik ma’lumotlari bazasi – WordNet lingvistik ontologiyasining tuzilishini o‘rganish, muammolarini tahlil qilish, foydalanish imkoniyatlari va boshqa tillar uchun tayanch tizim vazifasini bajarishi omillarini yoritib berish;

WordNet tizimidagi turk tili (KeNet) va rus tili (PyTez, RussNet) leksik resurslarini yaratish jarayonidagi tajribalarni o‘rganish hamda EuroWordNet multilingval formal ontologiya loyihasining ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etish natijasida o‘zbek tili ontologiyasini tuzishning umumiy tamoyillarini shakllantirish;

Lingvistik ontologiyalar klassifikatsiyasini tahlil qilish;

Leksik ma’lumotlar bazalari uchun semantik munosabatlar, jumladan, giperonimiya, xolo-meronimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari va ularning tasniflarini tahlil qilish va UzNet ontologik tizimini yaratishda o‘zbek tiliga tatbiq etish;

tadqiq etilgan ma’lumotlar asosida “O‘zbek tili ontologiyasi konsepsiyasi”ni loyihalash;

UzNet o‘zbek tili ontologiyasining lingvistik resurslari bazasini shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, o‘zbek tilidagi sinonimlar va o‘zbek tili ta’limiy korpusi bazasidagi lisoniy ma’lumotlar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini WordNet leksik ma’lumotlar bazasi, lingvistik ontologiyalarni yaratish texnologiyasi, WordNet, KeNet, RuTez leksik ma’lumotlar bazalaridagi semantik munosabatlar, UzNet lingvistik ontologiyasini yaratish konsepsiyasi tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, chog‘ishtirish, komponent tahlil, statistik, modellashtirish, substansial tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lingvistik ontologiya va tezaurus tushunchalarining semantik munosabatlarni qamrab olishi bo‘yicha integral hamda leksik birliklarning sohalararo tarmoqlanishi bo‘yicha differensial jihatlari falsafiy va lisoniy tamoyillar asosida muvaffaqiyatli aniqlanishi dalillangan;

lingvistik ontologiyada keng ko‘lamli sohalararo terminologik bazaning semantik tarmoqlanishiga asoslanishi aks etgan matematik modellar va leksik ma’lumotlar bazasi sifatida ontologiyaga qo‘yilgan konseptuallashtirish talablari aniqlangan;

ingliz tili Princeton WordNet ontologik tizimi asosida sinset (sinonimik to‘plam)lardagi semantik munosabatlar asnosidagi o‘zbek tili ontologiyasi (UzNet)ni yaratishning tizimli texnologiyasi, unda lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarni taqdim etishdagi tamoyillar asoslangan;

lingvistik ontologiyalardagi birlamchi elementlar – sinonim so‘zlar to‘plami (sinsetlar)ni yaratishning formal prinsiplari, tur va jins (giponim-giperonim), butun-bo‘lak (xolonim-meronim) munosabatlaridagi assimetriya, refleksivlik, tranzitivlik va merosiylik xususiyatlari aniqlangan, butun-bo‘lak munosabatlarini yuzaga keltiruvchi funksional, gomeo‘lchovli va alohidalangan qismlar asosida turlanishi dalillangan;

o‘zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasining milliy lingvistik xususiyatlari KeNet – turk tili maxsus taksonomik va semantik veb tizimining struktural texnologiyasi bilan qiyoslangan holda asoslangan;

UzNetda so‘z ma’nolari izohini berishning pog‘onali tartibi, so‘z turkumlarini teglashning qoidalarga asoslangan va stoxastik (ehtimollik nazariyasi va statistik) usullari, o‘zbek tili ontologiyasida kvazisinonimlar to‘plamini yaratish va lingvistik sinkretizmni aniqlashning aktual jihatlari hamda shakliiy munosabatlarga doir ma’lumotlar bazasi tarkibini tuzish prinsiplari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

UzNet lingvistik ontologiyasi sinset (ma’nodosh so‘zlar) to‘plamlari uchun “O‘zbek tilidagi sinonim so‘zlar bazasi” yaratilib, unga mualliflik guvohnomasi olingan²⁷;

UzNet o‘zbek leksik ma’lumotlar bazasi uchun omonim so‘zlar²⁸, antonim so‘zlar²⁹ va paronim so‘zlar³⁰ bazalari yaratilib, ularga mualliflik guvohnomalari olingan;

o‘zlashma so‘zlar turkumini teglash va o‘zbek tilidagi 11 000 o‘zlashma so‘zning izohini berish uchun o‘zlashma so‘zlarning urg‘uli bazasi yaratilgan va unga mualliflik guvohnomasi olingan³¹;

o‘zbek tili ontologiyasining lemmatizatsiya jarayoni uchun o‘zbek tilining morfologik ma’lumotlar bazasi hamda orfografik qoidalar tizimi yaratilgan;

yaratilgan formal orfografik qoidalar, so‘z yasalishi lug‘atining ma’lumotlari bazasi, paronim so‘zlar bazasidan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada, o‘zbek tilining universal grammatikasi uchun ishlab chiqilgan “Fonetika” bo‘limi ma’lumotlari va nutqiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar to‘plami PZ-

²⁷ O‘zbek tilidagi sinonim so‘zlarning ma’lumotlar bazasi. Guvohnoma № BGU 00380. – Toshkent, 2019.

²⁸ O‘zbek tilidagi omonim so‘zlarning ma’lumotlar bazasi. Guvohnoma № BGU 00381. – Toshkent, 2019.

²⁹ O‘zbek tilidagi antonim so‘zlarning ma’lumotlar bazasi. Guvohnoma № BGU 00390. – Toshkent, 2020.

³⁰ O‘zbek tilidagi paronim so‘zlarning ma’lumotlar bazasi. Guvohnoma № BGU 00469. – Toshkent, 2021.

³¹ O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning urg‘uli bazasi. Guvohnoma № BGU 00404. – Toshkent, 2020.

2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” olima ayollar grantida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi o‘zbek tili ontologiyasini yaratish muammosining aniq qo‘yilganligi, ishning o‘rganilish doirasi belgilab olinganligi, flektiv va agglyutinativ tillar doirasida leksik ma’lumotlar tizimlarini yaratish tajribalarining o‘rganilganligi, qolaversa, korpus va kompyuter lingvistikasida metodologik jihatdan asoslangan nazariy qarashlar, umummetodologik asoslarga ega materiallarga tayanib, ilmiy xulosalarga kelingani, tadqiqotda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish borasidagi nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili lingvistik ontologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqishda, lingvistik ontologiya uchun semantik munosabatlarni o‘rnatishning metodologik asosini belgilashda, UzNet ontologiyasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarni olib borishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati axborot qidiruvi tizimlari va mashina tarjimai uchun muhim manba bo‘lishi, tadqiqot materiallaridan “Kompyuter lingvistikasi” ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini olib borishda, oliy o‘quv yurtlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Ontologiyalar va semantik tizimlar”, “Korpus lingvistikasi”, “Mashina tarjimai”, “Parallel korpuslar” kabi yondosh fanlardan ma’ruzalar o‘qish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, elektron lug‘atlar (tarjima, tezaurus) tuzish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O‘zbek tili ontologiyasi konsepsiyasi bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

lingvistik ontologiya va tezaurus tushunchalarining semantik munosabatlarni qamrab olishi bo‘yicha integral hamda leksik birliklarning sohalararo tarmoqlanishi bo‘yicha differensial jihatlari falsafiy va lisoniy tamoyillar asosida muvaffaqiyatli aniqlanishiga oid natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe‘l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 26-noyabrdagi 04/1-2339-son ma’lumotnomasi). Natijada inson qiyofasi, fe‘l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasvirida xolonim (butun), meronim (qism), giperonim (jins), giponim (tur) so‘zlar o‘rni va ahamiyatini yoritishga; o‘zbek va ingliz tillaridagi ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’noviy munosabatlarini ochib berishga erishilgan;

lingvistik ontologiyalardagi birlamchi elementlar – sinonim so‘zlar to‘plami (sinsetlar)ni yaratishning formal prinsiplari, tur va jins (giponim-giperonim), butun-bo‘lak (xolonim-meronim) munosabatlaridagi assimetriya, refleksivlik, tranzitivlik va merosiylik xususiyatlari, butun-bo‘lak munosabatlarini yuzaga keltiruvchi funksional, gomeo‘lchovli va alohidalangan qismlar asosida

turlanishiga doir tadqiqot materiallari va natijalaridan “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasining “O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari”, “Leksik-semantik munosabatlar” va “So‘z turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari” nomli paragraflarida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 26-noyabrdagi 04/1-2341-son ma‘lumotnomasi). Natijada nutqiy kompetensiya va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish omillarini yoritishga, sinonimiya va giponimiya munosabatlarini misollar bilan ochib berishga, leksik-semantik munosabatlarning lisonni boyitishdagi ahamiyatini namoyon etishga, so‘z turkumlarini tasniflash zaruratini yoritib berishga erishilgan;

UzNetda so‘z ma‘nolari izohini berishning pog‘onali tartibi, so‘z turkumlarini teglashning qoidalarga asoslangan va stoxastik (ehtimollik nazariyasi va statistik) usullari, o‘zbek tili ontologiyasida kvazisinonimlar to‘plamini yaratish va lingvistik sinkretizmni aniqlashning aktual jihatlari hamda shakliy munosabatlarga doir ma‘lumotlar bazasi tarkibini tuzishga doir tadqiqot natijalari va materiallaridan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligida foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-son buyrug‘iga asosan 285-078 raqamli ruxsatnoma). Natijada darslikda sinonimiya va giponimiya hodisalarini misollar bilan yoritishga, turlarini ochib berishga, so‘zlarning semantik tasnifi va leksikolizatsiya hodisasini yoritishga erishilgan;

lingvistik ontologiyada keng ko‘lamli sohalararo terminologik bazaning semantik tarmoqlanishiga asoslanishi aks etgan matematik modellar va leksik ma‘lumotlar bazasi sifatida ontologiyaga qo‘yilgan konseptuallashtirish talablaridan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tili ta‘limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2021-yil 26-noyabrdagi 04/1-2340-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta‘limiy korpusida sinonim, antonim so‘zlari bazalari qatorida omonim va paronim so‘zlar bazasi asosidagi tizimli qidiruv natijasining chiqishiga erishilgan;

UzNet o‘zbek tili ontologiyasida semantik munosabatlarni shakllantirishda paronim so‘zlarning leksikografik bazasini yaratish maqsadida “O‘zbek tilidagi paronimlar so‘zlar lug‘ati” nashr qilingan (ISBN 978-9943-7870-6-3). Natijada o‘zbek tilidagi paronimlar bazasi yaratilib, o‘zbek tili ontologiyasi uchun lingvistik ta‘minot shakllantirilgan;

o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlar, ularning turkumi, izoh(lar)i, asliy til haqidagi ma‘lumotlar, o‘zlashmaning sinonim(lar)i, zid ma‘nolari haqidagi ma‘lumotlar, nutqni tanish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga, nutqiy g‘alizliklarni bartaraf etishga xizmat qilishi maqsadida belgilab qo‘yilgan o‘zlashmaning urg‘uli bazasi “O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarining urg‘uli lug‘ati”ni nashr etishda foydalanilgan (O‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning urg‘uli lug‘ati [Matn]: o‘quv-uslubiy lug‘at. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 988 b. ISBN 978-9943-6940-9-5). Natijada o‘zlashma so‘zlarning urg‘uli bazasi shakllantirilib, o‘zbek nutq sintezatorini yaratishda lingvistik ta‘minot vazifasini o‘tagan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro, 22 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda e’lon qilingan.

Muallifning quyidagi

<https://scholar.google.com/citations?user=ZSEZYo8AAAAJ&hl=ru>,

<https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova>,

<https://www.linkedin.com/in/manzura-abjalova-0125b21ba/>,

<https://orcid.org/0000-0002-1927-2669> ilmiy platforma profillarida ilmiy ishlari muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 48 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola (shundan 6 tasi xorijiy jurnalda), 5 ta mualliflik guvohnomasi, 1 ta Skopus bazasiga indekslangan nufuzli xalqaro konferensiyada hamda Respublika va xorijiy konferensiyalarda 20 ta ilmiy maqola va tezis e’lon qilingan. Natijalar 2 ta lug’at va 2 ta monografiyadan o’rin olgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rt asosiy bob, xulosa, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, hajmi 266 sahifani tashkil qiladi. Dissertatsiyaga 33 sahifali ilova biriktiriladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi ko’rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo’yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o’rganilganlik darajasi tahlili, maqsad va vazifalari berilgan, obyekt va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Lingvistik ontologiya – leksik ma’lumotlar bazasi**” deb nomlangan bo’lib, uch bo’limdan iborat. “*Lingvistik ontologiya va tezauruslar tahlili*” nomli birinchi bo’limda tadqiqot jarayonida ko’ndalang bo’lgan dastlabki masala – ontologiya va tezaurus konseptlari tahlil qilingan, WordNet – ingliz tili leksik ma’lumotlari tizimi va rus tilining ontologik tizimlari tahlil qilingan, ularning tuzilishi, asosiy elementlari va imkoniyatlari yoritilgan.

So’nggi vaqtlarda tibbiy, ilmiy, bank-moliya, siyosiy qidiruv kabi axborot qidirishning ixtisoslashgan turlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va bunday axborot tizimlarining sifatini ta’minlashda fan sohalaridagi bilimlarning o’rni muhim. Umuman, matnga avtomatik ishlov berishning zamonaviy usullari yordamida dasturiy tizimlarga til va dunyo haqidagi bilimlarni kiritish qiyin vazifadir. Buning yechimi esa til va dunyo to’g’risidagi bilimlarning maxsus yaratilgan manbalar (tezaurus, ontologiyalar)da aks etishi bilan bog’liq, bunday manbalarda o’n minglab so’zlar va iboralarning tavsifi, boshqa so’z va birliklar bilan semantik munosabatga kirishish va mantiqiy xulosa chiqarish imkoniyatlari

bo‘ladi. Ulardan foydalanilganda, odatda, so‘zlarning ko‘pma’nolilik, omonimlik va polifunksionallik xususiyatlari avtomatik tarzda hal qilinadi.

Ontologiya (yun. *ontos* [ὄντος] – borliq va *logiya* [λόγος] – ta’limot) aslida falsafa bo‘limi, borliq haqidagi ta’limot. Borliqning umumiy asoslari, prinsiplari, uning shakllari va qonuniyatlarini tekshiradi. Ontologiya terminini nemis faylasufi R.Goklenius³² fanga 1613-yil kiritgan, so‘ngra X.Volf (1679 – 1754) o‘z darsligida qo‘llagan (1730-yil) bo‘lsa-da, dastlab yunon faylasuflari uning turli talqinlarini bayon etganlar³³ va “ontologiya” ma’nodoshi sifatida “metafizika” terminini ham qo‘llashgan. Markaziy Osiyoning Kindiy, Zakariyo, Roziy, Forobiy, Ibn Sino singari mutafakkirlari yunon faylasuflaridan farqli ravishda ontologik ta’limotni butunlay yangi bosqichga ko‘tarishdi. Masalan, Forobiy ontologiyaga yagona borliqning mohiyatini ochib beruvchi ta’limot sifatida yondashgan³⁴.

Ontologiyada aloqalar va munosabatlar birlamchi hisoblanadi. Mazkur terminning mana shu xususiyati uning boshqa sohalarida ham keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi. Demak, “ontologiya” atamasi ko‘plab sohalarida qo‘llaniladi va ikki xil ma’noga ega: 1) “borliq” va “mohiyat”ni o‘zida namoyon etuvchi falsafiy tushuncha; 2) elementlarning mazmunini tavsiflaydigan, ular o‘rtasida tarmoqli munosabat o‘rnatilgan tizim. Ontologiyaga semantik tarmoq sifatidagi qarashlar XX asrning 90-yillar oxirlarida boshlangan. Lingvistik ontologiya (LO) til borlig‘i va mohiyati haqidagi fan sifatida kamdan-kam tilga olinadi. LO lisoniy borliqni tahlil qilish orqali tilning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Borliqning asosiy sohalariga tabiat, jamiyat va ong kiradi³⁵. Lingvistik ontologiyalarda ham tabiiy til boyligi, undan foydalanish imkoniyati va lison qamrab olinadi.

Falsafada ontologiyaning *predmeti* mohiyat, kompyuter lingvistikasida esa bilim sohaları hisoblanadi. Falsafada ontologiyaning *obyekti* inson, kompyuter lingvistikasida esa uning obyekti sinsetlar, ya’ni so‘zlarning ma’nodosh qatorlari sanaladi.

Tezaurus (yun. “xazina”) muayyan so‘zning leksik-semantik, kontekstual ma’nolarini qamragan lug‘at hisoblanadi, umuman olganda, maxsus terminologiyadir³⁶. Tezauruslar – muayyan fan sohalarini tavsiflashning eng samarali vositalaridan biridir³⁷. Ayrim manbalarda tezaurus ideografik (semantik) lug‘atga tenglashtiriladi. Ideografik lug‘atda lug‘at maqolalari glossema (bosh so‘z)ning odatdagidek alfavit tartibida emas, balki uning ma’nolari bo‘yicha (bosh so‘z yoki iboraning leksik ma’nosi) shakllantiriladi. Alfavit tartibidagi lug‘atlar muayyan bir so‘z haqida biror narsani bilib olishga xizmat qilsa, ideografik lug‘at ma’lum bir tushunchaga asoslangan ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtiradi,

³² Goklenius R. *Lexicon philosophicum*. Francofurti, 1613.

³³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ontologiya>

³⁴ To‘rayev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati: monografiya/ B.O.To‘rayev; maxs. muharrir M.N.Abdullayeva, O‘zR FA I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti (FHIN), 2011. – 128 b.

³⁵ To‘rayev B.O. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati: monografiya/ B.O.To‘rayev; maxs. muharrir M.N.Abdullayeva, O‘zR FA I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti (FHIN), 2011. – B. 5.

³⁶ [Тезаурус — Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Тезаурус)

³⁷ [Тезаурус – Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Тезаурус)

ya'ni muayyan tushunchani qanday so'zlar yordamida ifodalanishi ko'rsatiladi. Ideografik lug'atda so'zdan tushuncha (so'z → tushuncha)ga o'tilmaydi, balki tushunchadan so'zlar (tushuncha → so'zlar)ga tomon fikr harakati yo'naltiriladi. Masalan, *oila* konsepti *ota, ona, farzand, o'g'il, qiz, aka, uka, opa, singil* so'zlarini qamrab oladi. Mazkur lug'atdan foydalanish natijasida o'quvchida muayyan tushunchani turli so'zlar yordamida ifodalash, mantiqiy fikr yuritish, mental idrok etish kompetensiyalarini shakllantiradi yoxud rivojlanishiga turtki beradi.

LO til imkoniyatini borligicha, hamma soha bo'yicha qamrab olsa, tezauruslar muayyan to'plam yoxud yo'nalish, sohaga oid tushunchalar munosabati bilan cheklanadi. LOlar asosida so'zlar va so'z birikmalari bo'lganligi bois ular leksik ma'lumotlar bazasi deyiladi. Bunda lingvistik ontologiyaga faqat leksemalardan iborat tizim emas, balki tabiiy til leksemalari qamroviga ega tizim sifatida qaraladi. Shu bois ham **LOga nisbatan leksik ma'lumotlar bazasi** parafrazasi qo'llaniladi.

Birinchi bobning "*WordNet – lingvistik ontologiyalar uchun tayanch baza*" nomli bo'limida ingliz tili imkoniyatlarini o'zida namoyon etish maqsadida yaratilgan WordNet leksik ma'lumotlar bazasi (ayrim manbalarda *ochiq elektron ontologiya*, ayrim manbalarda *tezaurus*³⁸ deyiladi) tuzilishi, tarkibi va imkoniyatlari, uning asosida yaratilgan ko'p tilli EuroWordNet formal ontologiyasi va GlobalWordNet tizimi tarkibi ochib berilgan.

Princeton WordNet (PWN) leksik ma'lumotlar bazasi (LMB)ni yaratish ishlari 1984-yilda J.Miller va K.Fillbaumlardan tomonidan boshlangan bo'lib, 1995-yildagina WordNet'dan Internet tarmog'ida erkin foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi va u matnlarni avtomatik qayta ishlashga mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar bo'yicha tadqiqotlarning jadallashishiga turtki berdi. Aslida, WordNet inson xotirasi modeli sifatida psixolingvist J.Miller tomonidan yaratilgan. Shu o'rinda savol tug'iladi: nega aynan tilshunos emas, psixolingvistlar WordNet uchun tamal toshini qo'ydi? Sababi so'z tavsiflarini taqdim etish yuzasidan chiqarilgan ko'plab xulosalar psixolingvistik eksperimentlar bilan bog'liq bo'lgani bois, inson xotirasi va miya neyronlari tarmoqlari imitatsiyasi sifatida ingliz tili uchun WordNet tarmoqli leksik ma'lumotlar bazasi ishlab chiqiladi. Ammo WordNet psixolingvistlardan ko'ra kompyuter lingvistlari qiziqishlarini uyg'otdi.

J.Miller WordNet rivojlanishi omillarini quyidagi 3 farazda mujassamlashtirdi³⁹ (uch gipoteza): 1) **ajraluvchanlik gipotezasi**: tabiiy tilning leksik tarkibiy qismi tavsifini ajratish va alohida o'rganish mumkin. Muayyan yo'nalish, masalan, mashina tarjimai lingvistik bazasi uchun so'z turkumlarini teglash maqsadida barcha turkumlar bazasi alohidalanilishida mana shunday yirik leksik ma'lumotlar bazasi qo'l keladi; 2) **"namuna" gipotezasi (patterning hypothesis)**: tilda o'z formal izohiga ega shunday so'zlar borki, bunday izohlarni tildagi aksariyat so'zlarga qo'llash imkoniyati mavjud. Bunday tavsiflar, asosan, ma'nodosh so'zlarga muvofiq keladi. Shu bois ham WordNet asosini sinonim so'zlar tashkil etadi; 3) **qamrab olish gipotezasi (comprehensiveness)**

³⁸ http://db4.sbras.ru/elbib/data/show_page.phtml?20+1531 _ Тезаурус WordNet; Лукашевич Н. В. Тезаурусы в задачах информационного поиска – М., 2010. – 396 с.

³⁹ http://db4.sbras.ru/elbib/data/show_page.phtml?20+1531 _ Тезаурус WordNet

hypothesis): lug‘aviy birliklar qamrovi keng elektron lug‘at. Matnlarni avtomatik qayta ishlash dasturlarida kompyuter lug‘atlaridan samarali foydalanish uchun lug‘at juda katta hajm va qiymatga ega bo‘lishi zarur hisoblanadi.

WordNet bazasi ot turkumiga oid so‘zlar, fe’llar, sifatlar va ravishlar “sinset” deb nomlangan kognitiv sinonimlar to‘plamida guruhlashtirilgan bo‘lib, har birining semantik munosabatlari quyidagicha: *otda* sinonim, giperonim-giponim, *fe’lda* sinonim, giperonim-giponim, *sifatda* antonim, *ravishda* uning semantik guruhlari va valentliklari aks etgan. Sinsetlarda har bir turkumdagi birlik alohida tushunchani ifodalaydi. Masalan “book” so‘zining *rule book (qoida kitobi) / record book (yozuv kitobi) / volume (jild, tom) / Book (Kitob (atoqli ot)) / record (yozuvlar) / reserve (zaxira)* tushunchalari mavjud. Ular, o‘z navbatida, tarkibiy ma’nodoshlariga ega. Jumladan: *accumulation (to‘plash), aggregation (jamlash), assemblage (yig‘ish), collection (to‘plash, kolleksiya)* – ot turkumi; *section (bo‘lim), subdivision (bo‘linma)* – ot turkumi; *product (mahsulot), production (ishlab chiqarish)* – ot turkumi; *schedule (dastur, jadval)* – ot turkumi; *reserve (zaxira), hold (ushlab turish)* – fe’l turkumi; *put down (qo‘ymoq), enter (kiritmoq)* – fe’l turkumi; *record (yozmoq) - put down (yozib qo‘shmoq), enter (kiritish)* – fe’l turkumi; *record book (yozuvlar kitobi) – record (yozuvlar)* – ot turkumi; *account book (kirim-chiqim kitobi), book of account (hisob kitobi), ledger (ro‘yxatga olish kitobi), leger* – ot turkumi; *playscript (ssenariy), script-publication (qo‘l yozma)* – ot turkumi. Mazkur tarmoqda ayon bo‘lyaptiki, “record” so‘zi ham ot turkumi, ham fe’l turkumiga mansub bo‘lib, ot va fe’l sinonimik qatorlarini birlashtiruvchi tugun hisoblanadi.

1996-yil martidan 1999-yil sentyabrigacha Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtirilishi natijasida WordNet’ning ko‘p tilli versiyasi – EuroWordNet yaratildi⁴⁰. Mazkur tizim formal ontologiya hisoblanadi va unda ingliz, daniya, ispan, italyan, nemis, fransuz, chex va eston tillarining WordNet lug‘atlari, Princeton WordNet 1.5 versiyasi birlashtirilgan. EuroWordNet lug‘atlari tijoriy mahsulotlar hisoblanadi.

Birinchi bobning “RuTez lug‘aviy ma’lumotlar bazasining dasturiy ta’minoti” nomli ikkinchi bo‘limida RuTez va RussNet lingvisti resurlari tahlil qilingan. RuThes – rus tilidagi tezaurus (ayrim manbalarda ontologiya⁴¹). Axborot tadqiqotlari markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya qilish vositasi sifatida 1994-yildan yaratila boshlangan va hozirgi kungacha tarkibi ishlab chiqishda davom etmoqda. RuTez tezaurusining rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy tezaurusning rivojlanishi bilan boshlangan⁴². 45 ming tushunchalar, 107 ming so‘z va iboralar, 177 ming sinonimik munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

RuTez quyidagi to‘rtta tamoyilga asoslanadi va shunga binoan to‘rtta XML faylidan tashkil topgan⁴³: 1) tushuncha – `concepts.xml`; 2) tushunchalar o‘rtasidagi

⁴⁰ P.Vossen. Building a multilingual database with wordnets for several European languages. <http://www.illc.uva.nl/EuroWordNet/>

⁴¹ <https://nlpub.ru/PyTez>; <https://new.labinform.ru/pub/ruthes/index.htm>

⁴² Лукашевич Н.В., Салий А.Д., Тезаурус для автоматического рубрицирования и индексирования: разработка, структура, ведение // НТИ. Сер.2. - 1996. - N 1. – С.1-6.

⁴³ <https://nlpub.ru/PyTez>

munosabat – relations.xml ; 3) matn kiritish elementi – text_entry.xml; 4) tushunchalar va matnli kiritmalar o‘rtasidagi munosabat – synonyms.xml.

Dissertatsiyaning “**Lingvistik ontologiyalarni yaratish texnologiyasi va mezonlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida keng ko‘lamli bilim sohalarda matnlarni qayta ishlash uchun foydalanishga mo‘ljallangan lingvistik ontologiya modeli, formal sxemalari va shu model asosida ishlab chiqilgan aniq resurslar tavsiflanadi. Model tarzida keng ko‘lamli predmet sohalarida bilimni tavsiflashga qaratilgan uch paradigma: axborot-qidiruv tezauruslari, WordNet turiga mansub tezauruslar, ontologiyalar inobatga olingan. Tushunchalar orasidagi munosabatlar tizimiga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, turk tilining WordNet tizimidagi KeNet resursi tuzilishi, tarkibi, yuzaga kelgan muammolarini yoritish asnosida o‘zbek tili ontologiyasini yaratish texnologiyasi va mezonlari aniqlashtirib berilgan.

Mazkur bobning birinchi – “*KeNet – turk tili ontologiyasining yaratilish tamoyillari*” deb nomlangan bo‘limida turk tili uchun keng qamrovli WordNet, ya‘ni KeNet⁴⁴ va uning yaratilishi atroflicha yoritib berilgan va tahlil qilingan. KeNet ham ichki semantik munosabatlarga ega bo‘lib, 76 757 ta sinsetni o‘z ichiga oladi. PWN (Princeton WordNet) bilan tillararo aloqa orqali bog‘langan. Ushbu bo‘limda Sinset yaratishda sinset tarkibiga kiruvchilarning semantik aloqasida yuzaga kelgan asosiy muammo sababli sinsetlardagi sinonimik munosabatlarni boshqarish uchun ikkita jarayon – *birlashish jarayoni* va *ajratish jarayoni* bajarilganligi tushuntiriladi. KeNet`da birlashish jarayonida birlashtirilishi kerak bo‘lgan turli xil sinset to‘plamlari aniqlangan, identifikatsiya qilingan va sinsetlar bir to‘plam sifatida guruhlangan. Sinsetlar to‘plamini birlashtirishda uchta narsa juda muhim sanaladi⁴⁵: 1) har bir ma‘lumotlar to‘plami yagona va o‘ziga xos izoh/tavsifga ega bo‘lishi; 2) har bir ma‘lumotlar to‘plamida sinonim a‘zosi sifatida haqiqiy sinonimlarning mavjud bo‘lishi; 3) har bir ma‘lumotlar to‘plamida birinchi tarkibiy qismi reprezentativlangan (o‘zida lingvistik ma‘lumotni ifodalovchi, ko‘rsatuvchi, grammatik xarakterli) bo‘lishi kerak. Noto‘g‘ri birlashtirishning uchta asosiy omili bor: 1) ma‘no, izohlarning turli xilligi; 2) POS, ya‘ni so‘z turkumlarini teglash bilan bog‘liq muammo; 3) morfologiyaga bog‘liq muammolar⁴⁶. Dissertatsiyada mazkur omillar izohlangan. Ma‘noga bog‘liq bo‘lgan muammo shundaki, semantik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, ammo aynan sinonim bo‘lolmaydigan (aynan emas yoki bir-biri o‘rnida qo‘llanilmaydigan) so‘zlar sinsetlarning tarkibiy qismi sifatida berilgan. Masalan, *dere (irmoq)* va *irmak nehir (daryo)* kabi o‘xshash ma‘nolarga ega bo‘lgan otlar ideografik jihatdan o‘rinli joylashgan bo‘lsa-da, bir-biriga semantik muvofiqligi jihatdan noto‘g‘ri birlashtirilgan. POS muammosi ma‘no jihatdan bir-biriga muvofiq, ammo turli xil so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan sinset tarkibiy qismlari

⁴⁴ KeNet qisqartma nomidagi Ke qismi turkcha “kelime” (kalom, so‘z) so‘zining birinchi bo‘g‘ini hisoblanadi.

⁴⁵ Özge Bakay and others. TurkishWordNet KeNet. Global Wordnet Virtual Conference. 2021. January. – P. 166. https://www.researchgate.net/publication/348264475_Turkish_WordNet_KeNet

⁴⁶ Bakay O., Ergelen O., and Yildiz O.T. 2019. Problems caused by semantic drift in wordnet synset construction. In UBMK.

uchraganda yuzaga keladi. Masalan, *güç* (kuch, quvvat) va *güç* (qarshilik) soʻzlari ot turkumiga oid, *güç* (qiyin) sifat turkumiga oid soʻz bir oʻzakka birlashtirilib, unga izohlar umumiy holda berilgan. Bunday holat natijasi sinset aʼzolarining notoʻgʻri birlashtirilishiga sabab boʻladi. Morfologiya bilan bogʻliq muammo esa soʻzning turli morfologik shakllari bitta sinset tarkibiy qismlari sifatida notoʻgʻri birlashtirilganda yuzaga kelgan. Masalan, bir xil asosga ega *sopalamak* (savalamoq) – sof feʼl, aniq nisbat, feʼlning noaniq shaklida va *sopalanmak* (savalanmoq, kaltaklanmoq) – majhul nisbatdagi feʼl turli xil bajaruvchilariga egaligini bildirishi bilan maʼno farqlariga ega, morfologik koʻrsatkichlari ham farqli boʻlsa-da bir xil guruhda birlashtirilgan. KeNet`da bunday shakllar ham ajratilib, ular uchun alohida maʼlumotlar toʻplami yaratilgan.

Ikkinchi bobning “*Leksik maʼlumotlar bazalari klassifikatsiyasi (tasnifi)*” deb nomlangan boʻlimida manbalarda lingvistik ontologiyaga berilgan 11 yondashuvli taʼriflar tahlil qilinadi va natijada biz tomonidan maqbul taʼrif muayyanlashtiriladi: “*Ontologiya – til va dunyo bilimlariga asoslangan, sohalararo terminlarni qamrab olgan va ular oʻrtasidagi munosabatlar asosida shakllantirilgan tarmoqli leksik maʼlumotlar bazasi*”. Mazkur boʻlimda, shuningdek, ontologiyalar tasnifi tahlil qilinadi va ikki yondashuv asosida yuzaga kelgan uning quyidagi turlari yoritib beriladi: *metaontologiyalar* – predmet sohalariga bogʻliq boʻlmagan eng umumiy tushunchalarni tavsiflaydi; *soha ontologiyasi* – sohaning formal tavsifi; u odatda meta-ontologiyada (agar foydalanilsa) aniqlangan tushunchalarni aniqlashtirish va/yoki predmet sohasining umumiy terminologik bazasini aniqlash uchun ishlatiladi; *aniq vazifalar ontologiyasi* – vazifa yoki muammo bilan bogʻliq umumiy terminologik bazani belgilaydigan ontologiya; *tarmoq ontologiyalari*, koʻpincha, soha yoki vazifadagi obyektlar tomonidan bajarilgan harakatlarning yakuniy natijalarini tavsiflash uchun qoʻllaniladi.

Ikkinchi bobning “*Ontologik tarmoq – leksik maʼlumotlar tizimi modellari*” nomli boʻlimida hozirgi vaqtda axborot qidiruv va axborot-tahlil tizimlarida foydalaniladigan dunyo va til haqidagi bilimlarni oʻz ichiga olgan resurslarning uchta asosiy paradigmasi muhokama qilingan. Bular: tezauruslar, WordNet (tezaurusi) va formal ontologiyalar⁴⁷.

Formal ontologiyalar – axborot qidirish ilovalari uchun kompyuter resurslarining zamonaviy paradigmasi⁴⁸. Ushbu tizim keng koʻlamli ontologik resurslarni qurishga asoslangan Semantik veb (Semantic Web)⁴⁹ konsepsiyasini ilgari surish natijasida yuzaga kelgan⁵⁰. Ammo formal ontologiyalar tarafdorlari fikriga qarshi ularoq S.Nerinburg tabiiy tildagi strukturlashtirilmagan matnlarni ulardagi koʻp maʼnolilik, omonim va polifunksionallik hodisalari bilan avtomatik qayta ishlashni aksiomatik nazariyalar yordamida amalga oshirish qiyin, deya

⁴⁷ Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2011. – 512 с.

⁴⁸ Qarang: <http://globalwordnet.org/resources/wordnets-in-the-world/>

⁴⁹ Berners-Lee, T. The Semantic Web / T. Berners-Lee, J. Handler, O. Lassila // Scientific American - 2001. – V. 284. – No 5. – P. 28-37.

⁵⁰ Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования, том 5, №1(15)/2015. – С. 48.

munosabat bildiradi⁵¹. Shu bois matnlarni avtomatik qayta ishlash uchun ontologiyaning maxsus turlari (terminologik yoki maxsus ontologiyalar) ishlab chiqilmoqda⁵². Bir jihatdan, formal ontologiyalarda tushunchalar to‘liq o‘z aksini topmaydi. Boshqa tomondan, matnni tahlil qilishda, ko‘pincha, ontologiyaga asoslangan formal mantiqiy xulosa zarur hisoblanadi, chunki izchil matnda ma’lumotlarning hajmi aniq ko‘rsatilmagan bo‘ladi⁵³. Bundan tashqari, matnlarni avtomatik qayta ishlashda ontologiyalardan foydalanilgani sababli til birliklari tushunchalari va bilim sohasi atamalari bilan jiddiy aloqador bo‘lgan *lingvistik ontologiya* deb ataluvchi tushuncha paydo bo‘ldi⁵⁴.

N.V.Lukashevich ontologiyaning rasmiy ta’rifini quyidagi formulada ifodalaydi:

$$O = \langle C, E, At, R, A \rangle,$$

bunda: C – ontologiyadagi tushunchalar (sinflar), E – ontologiyadagi ekzemplarlar (atoqli otlarni turdosh otlar munosabatdoshi sifatida qayd qilinishi), At – ontologiya tushunchalari va ekzemplarlari atributlari, R – tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar, A – ontologiya aksiomalari⁵⁵.

Ontologiyaning mashhur rasmiy modellaridan biri quyidagicha ifodalanadi⁵⁶:

$$O = \langle L, C, F, G, H, R, A \rangle,$$

bu yerda: $L = L_C \cup L_R$ – ontologiya lug‘ati. Unda L_C tushunchasi uchun leksik birliklar (belgilar) to‘plami hamda L_R munosabatlari uchun belgilar jamlanmasi bo‘ladi;

C – ontologiyadagi tushunchalar to‘plami; F va G – L ga tegishli $\{l_j\}$ leksik birliklar to‘plamlarini ushbu ontologiya tushunchalari va munosabatlari jamlanmasi bilan bog‘laydi; H – munosabatlar (aloqalar)ning taksonomik tabiatini belgilaydi, bunday hollarda ontologiya tushunchalari $H \subset C \times C$ ko‘rinishidagi norefleksiv, atsiklik, tranzitiv munosabatlar bilan bog‘liq bo‘ladi; R – ontologiya tushunchalari o‘rtasidagi notaksonomik munosabatlarni anglatadi; A – ontologiya aksiomalari to‘plami. Tabiiy til ontologiyasi, jumladan, o‘zbek tili ontologiyasini yaratishda ushbu modelga asoslanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Tadqiqot ishining **“Leksik ma’lumotlar bazalarida semantik munosabatlar”** nomli uchinchi bobida sinonimlar to‘plami – sinsetlarni, ya’ni muayyan tilning WordNet tizimini yaratish jarayonlari tushuntirilgan, xolonimiya

⁵¹ Nirenburg, S. What’s in a symbol: Ontology, representation, and language / S. Nirenburg, Y. Wilks // Journal of Experimental and Theoretical Artificial Intelligence. - 2001. - V. 13(1). - P. 9-23.

⁵² Ландэ, Д.В. Подход к созданию терминологических онтологий / Д.В. Ландэ, А.А. Снарский // Онтология проектирования. 2014. № 2(12). – С. 83-91.; Sowa, J. Building, Sharing and Merging Ontologies. – <http://www.jfsowa.com/ontology/ontosar.htm> .

⁵³ Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования, том 5, №1(15)/2015. – С. 48-49.

⁵⁴ Magnini, B. Merging Global and Specialized Linguistic Ontologies / B. Magnini, M. Speranza // Proceedings of OntoLex. - 2002. - P. 43-48.; Veale, T. A context-sensitive framework for lexical ontologies / T. Veale, Y. Hao // Knowledge Engineering Review. 2007. Vol. 23(1). – P. 101-115.

⁵⁵ Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования, том 5, №1(15)/2015. – С. 49.

⁵⁶ Лукашевич Н.В., Добров Б.В. Проектирование лингвистических онтологий для информационных систем в широких предметных областях // Онтология проектирования, том 5, №1(15)/2015. – С. 50.

va giperonimiya munosabatlar konsepsiyasi, ularni tarkibiy modellashtirish tamoyillari va ahamiyati, turlari borasida tadqiq natijalari keltirildi.

WordNet.princeton.edu tizimida quyidagi turkumlar semantik tarmoqlangan: *ot* (sinonim, giperonim-giponim), *fe'l* (sinonim, giperonim-giponim), *sifat* (antonimi), *ravish* (semantik guruhi, valentliklari).

Mazkur bobning “*Sinset to‘plamlari – leksik ma’lumotlar tizimining birlamchi elementlari*” nomli birinchi bo‘limida sinset to‘plami va uni yaratish bosqichlari yoritildi. Ma’nodosh birliklar qatori va turkumlari belgilangan so‘zlar lingvistik ontologiyada eng muhim element / atribut (axborot texnologiyalari tili bilan aytganda)lar hisoblanadi. LMBda sinonim so‘zlar qatori to‘plam hisoblanadi va ular tarmoq orqali bir-biri bilan bog‘langani uchun “*sinset*” deyiladi.

Sinsetlarni, jumladan, o‘zbek tili ontologiyasi sinonimlar to‘plamini yaratishda, asosan, quyidagi resurslar zarur hisoblanadi: 1) sinonimlar lug‘ati – ma’nodosh so‘zlar to‘plamini yaratish va /yoki sinset tarkibini to‘ldirish uchun; 2) izohli lug‘at – so‘zlar izohini berish va giperonim munosabatini bergilash uchun. M-n: stul ta’rifi beriladi, uning mebel predmeti ekanligi belgilanadi; 3) Milliy korpus – lug‘atga kirmagan lug‘aviy ma’nodoshlar, kvazisinonimlar, matniy sinonimlarni topish uchun; 4) parallel korpuslar – ishonchli lug‘aviy, matniy tarjima ekvivalentini topish uchun.

E’tiborli jihati, PWN’da dastlab so‘z turkumlariaro munosabat o‘rnatilmagan. Bu dasturiy ilovalarda jiddiy muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, EuroWordNet loyihasida so‘z turkumlari o‘rtasida qo‘shimcha munosabatlar kiritilgan: 1) xpos-sinonimiya – so‘z turkumlari sinonimiyasi; 2) xpos-antonimiya – so‘z turkumlari antonimiyasi; 3) xpos-giponimiya – so‘z turkumlari giponimiyasi. Shunday qilib, 2.5.1-bo‘limda *adornment2* (bezatish jarayoni) va *adorn1* (bezatish) sinsetlari o‘rtasidagi munosabatlarni so‘z turkumlari sinonimiyasi munosabati bilan izohlash mumkin⁵⁷. Bunday munosabat sinonimiyaning kvazisinonim deb nomlangan turi hisoblanadi.

III bobning “*Xolonim – meronim munosabati: modellashtirish tamoyilari*” nomli bo‘limida xolónim (qad. yunoncha ὅλος = «butun» + ὄνομα = «nom») muayyan tushuncha(lar)ning butun holati (ko‘rinishi)⁵⁸ – butun va merónim (qad. yunon. μέρος = «qism» va ὄνομα = «nom») boshqa tushunchaning tarkibiy qismi⁵⁹, meronim ayrim adabiyotlarda partonim⁶⁰ (lot. pars, chiq.k. – partis = «qism») – qism munosabati va ularning turlari tahlil qilindi.

M.V.Nikitinning so‘zlariga ko‘ra, meronimik munosabatlar lug‘atni semantik tartiblashda eng muhim omil, shuning uchun u ajralmas iyerarxik tuzilma sifatida

⁵⁷ Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2010. – С. 72.

⁵⁸ https://ru.wikipedia.org/wiki/Мероним_и_холоним

⁵⁹ <https://kartaslov.ru/значение-слова/мероним>

⁶⁰ Глобина Л.В. Лексико-семантическое поле партитивной лексики в современном русском языке: дис. ... канд.филол.наук. – Воронеж, 1995. – 205 с.; Коннова М.Н. Введение в когнитивную лингвистику : учебное пособие. Изд. 2-е, перераб. — Калининград : Изд-во БФУ им. И. Канта, 2012. – 313 с.; Материнская О.В. Система меронимов в немецком и английском языках: дис. ... д-ра филол.наук. – Донецк, 2013. – 403 с.; Колодько Д.А. К вопросу о классификации меронимов // Научные записки Национального университета «Острожская академия». Серия «Филология»: сборник научных трудов. – Острог, 2015. Вып.51. – С. 226-228;

namoyon bo‘ladi. M.V.Nikitin meronimiyaga shunday tavsif beradi: “Shubhasiz, butun-bo‘lak munosabatlari butun dunyoni pastdan yuqoriga, mikro dan makrokosmosga, elementar zarralardan galaktikalarga qadar qamrab oladi. Ular har xil daraja murakkabligidagi narsalarni qismlar-butun, elementlar-tizimning turli bosqichli iyerarxiyaga keltirgan holda o‘z ichiga oladi. Bu munosabatlar umumiy va global hisoblanadi”⁶¹.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish joiz: sinekdoxa ham butun-bo‘lak munosabatiga asoslanadi. Xolonimiya bilan farqli jihati shundaki, sinekdoxa ma’no ko‘chishining bir turi hisoblansa, xolo-meronimiyada to‘g‘ri ma’noda funksional va fiziologik yoki jisimiy tuzilishi bo‘yicha qism-bo‘lak munosabatlari mavjud bo‘ladi.

Partonimiya hodisasini o‘rganish lug‘at boyligi tizimining «sir»larini ochish, so‘z ma’nolarini aniq va to‘g‘ri izohlash nuqtayi nazardan ahamiyatlidir⁶². Bu hodisa o‘zbek tilshunosligida H.Ne‘matov, R.Rasulov, B.Qilichev, H.Jamolxonov⁶³ kabi tilshunoslarning ishlarida ma’lum darajada o‘z talqinini topgan. Lingvistik ontologiyani yaratishda butun-bo‘lak munosabatlarini o‘rganishda xorijlik mutaxassislardan Ye.Layzi, D.Kruz, R.Chaffin, Ye.Vinston, D.German, V.Storey; rus olimlaridan M.Nikitin, N.Lukashevich, Ye.Materinskaya, Yu.Rusina, D.Kolodko ishlari fundamental asos bo‘ldi.

Klassik mereologiyada butun-qism (bo‘lak) munosabatida 3 ta aksioma keltiriladi⁶⁴. Formulalarda P – butun, x, y, z – qismlar.

1. Refleksivlik. Hamma narsa o‘zining tarkibiy qismi hisoblanadi. ($P.S.$ yoki oddiygina $P=x,y$)

2. Antisimmetriya: hech narsa o‘zining tarkibiy qismlarining bo‘lagi bo‘la olmaydi. ($P.S. P \neq x \leftarrow p, y \leftarrow p$)

3. Tranzitivlik – o‘tkazuvchanlik: qismlarning qismlari butunning ham qismlari hisoblanadi. ($P.S. x \leftarrow y, y \leftarrow z = P \leftarrow z$)

Butun-qism munosabatlarining mazkur aksiomalar tizimi, odatda, asosiy mereologiya (базовая мереология, ground mereology) deb ataladi⁶⁵.

Ko‘plab mualliflarning ta’kidlashicha, lingvistik tahlilda butun-bo‘lak munosabatlar transitivligi bilan jiddiy muammolar paydo bo‘ladi. Masalan, *qo‘l – bu dirijor qismi* (a’zosi), *dirijor esa orkestr bo‘lagi*, ammo yuqoridagi tranzitivlik (3) aksiomasiga binoan “*qo‘l – orkestr qismi*” deyish g‘alizlikni yuzaga keltiradi⁶⁶. N.V.Lukashevich tranzitivlik bilan bog‘liq bunday muammolar butun-qism munosabatlarida har xil turdagi obyektlarning aralashishi bilan bog‘liqligini

⁶¹ Никитин М.В. Курс лингвистической семантики: учебное пособие для студентов, аспирантов и преподавателей лингвистических дисциплин в школах, лицеях, колледжах и вузах. СПб.: Научный центр проблем диалога, 1996. – С. 442.

⁶² Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 147.

⁶³ Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O‘zbek tili va adabiyoti. 1989, № 6. – B.35-40.; Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya. Filol.fan.nomz...dis. – Toshkent, 1997.; Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – 260 b.


⁶⁴ Simons P. (1987). Parts. A study in Ontology. Oxford University Press. – 390 p.; Varzi A. (2006). A Note on Transitivity of Parthood // Applied Ontology, 1:2, pp. 141-146.

⁶⁵ Лукашевич Н.В. Тезаурусы в задачах информационного поиска. – Москва: МГУ, 2011. – 512 с.

⁶⁶ Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 9.

ta'kidlaydi⁶⁷. Vinston va boshq. (Winston et al) ishida tranzitivlik bilan bog'liq muammolar quyidagicha izohlanadi: "bir turdagi munosabat qo'llanilganda, butun qism har doim ham o'tuvchi bo'ladi. Biroq meronimiyaning har xil munosabatlari aralashganda, transitivlikda muammo yuzaga keladi"⁶⁸. Yana bir misol: *barg* – *daraxtning bir qismi*, *daraxt* – *o'rmonning bir bo'lagi*, lekin *barg* *o'rmonning bir qismi* deyish g'alati bo'ladi.

D.Kruz esa o'z ishida yaxshi shakllangan iyerarxiya bir xil turdagi elementlardan iborat bo'lishini ta'kidlaydi⁶⁹. D.Kruz fikrini misol yordamida tushuntiramiz: butun-qism munosabatida agar bir element geografik nom yoki hudud bo'lsa, u holda boshqa elementlar ham shu turga mansub bo'lishi kerak. Masalan, Nurobod tumani Samarqand viloyatining bir qismi, Samarqand O'zbekiston Respublikasining bir bo'lagi, demak, Nurobod O'zbekiston Respublikasining bir bo'lagi hisoblanadi.



Shunday qilib, agar meronimiya elementi jismaniy obyekt bo'lsa, meronimiyaning boshqa barcha elementlari ham jismaniy bir xil bo'lishi kerak. Agar bitta element mavhum ot bo'lsa, unda boshqalari ham shunday turda bo'lishi kerak. Bizningcha, tranzitivlikda butun-qism munosabatini "to'liq tranzitivlik" va "qizman tranzitivlik" tarzida guruhlab olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda qisman tranzitivlikda matnda uchragan, ammo qism-butun munosabatida g'aliz hisoblangan birliklar o'z aksini topadi. Umuman olganda, bunday holatning yuzaga kelishi kundalik turmushda "qism" tushunchasining torayishi bilan bog'liq.

Endi yuqorida keltirilgan misolga qaytamiz: *dirijorning qo'li* – *dirijor* – *orkestr*. Bunda qo'lning massasi orkestr massasining bir qismi ekanligi, dirijorning qo'li orkestr egallagan joyning bir qismidaligini ko'rishimiz mumkin. Agar dirijorning qo'li shikastlangan bo'lsa, u orkestrning ishlashi bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin (hatto jiddiy bu orkestr uchun fojea ham hisoblanadi). *Barg* – *daraxt* – *o'rmon* munosabatlarini ham xuddi shunday izohlash mumkin. N.V.Lukashevich shu masalaga to'xtalar ekan, "qism" tushunchasini talqin qilish uchun qo'shimcha shartlar qo'yish joizligini ta'kidlaydi, ya'ni bu qism funksional bo'lishi kerakligi haqidagi qo'shimcha talab va hokazolar, albatta, o'tuvchanlikni yuzaga keltirmasligi mumkin⁷⁰, deydi. Bunday holda, Butunning o'z funksiyalari va qismning butun bajaradigan vazifalarni to'ldiruvchi funksialar tranzitivlikni yuzaga keltirmaydigan yoxud g'alizlikka olib keluvchi omillar bo'lishi mumkin. Mana shunday farqlanishga asosan leksik ma'lumotlar bazasida biz yuqorida taklif qilgan ikki toifa guruhlashni amalga oshirish mumkin.

⁶⁷ O'sha manba.

⁶⁸ Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. A Taxonomy of Part-Whole Relations // Cognitive Science, 11, – pp. 417-444.

⁶⁹ Cruse D. 1986. Lexical Semantics. Cambridge. University Press. – 310 p.; Winston M., Chaffin R, Herrmann D. 1987. A Taxonomy of Part-Whole Relations // Cognitive Science, 11, – pp. 417-444.

⁷⁰ Лукашевич Н.В. Отношения часть-целое: теория и практика. // «Нейрокомпьютеры: разработка, применение». – Москва: Радиотехника, 2013. – С. 11.

1. *Funksional qismlar* fazoviy holat va vaqt vaziyatida funksiyasi bilan chegaralangan bo'ladi. Misol uchun, *dastali piyola* (chashka) *tutqichi* ushlar vazifasini bajarsa, joyning chegaralangan qismida joylashishi mumkin.

2. *Gomeo'lovli qismlar* butun mansub bo'lgan turni ifodalaydi, ya'ni qismlar butunga aynan o'xshaydi yoki o'zi mansub bo'lgan butunga to'g'ridan to'g'ri tegishli bo'ladi. Masalan, *ushoq – non, bo'lak – tort*. Gomomerik yoxud gomeo'lovli bo'lmagan qismlar esa butundan farq qiladi, masalan, *daraxt – o'rmon, stol – mebel* kabi.

3. *Alohidalgan qismlar* butundan nisbatan ayri holda turadi. Masalan, *tortma – stol* (tortmani stoldan ajratish mumkin), *tutqich – chashka* (bir-biridan ajratib bo'lmaydigan qismlar).

Mazkur 3 belgi kombinatsiyasi asosida qism va butun munosabati yuzaga kelishining oltita turi ajratiladi (dissertatsiyada xolonimiya turlari misollar bilan batafsil yoritildi).

Wordnet ma'lumotlar bazasida muayyan bir tushuncha bilan bog'liq meronim munosabatlarning uch turi aniqlandi⁷¹: 1) qisman meronim: “*g'ildirak*” “*mashina*”ning bir qismidir; 2) ishtirokchining meronimi: “*mashina*” – “*tirbandlik*” ishtirokchisi; 3) modda (moddiy) meronimi: “*g'ildirak*” “*kauchuk*”dan tayyorlangan.

Turli ontologiyalar bazalari va ularga doir tadqiqotlarni o'rganish jarayonida butun-qism munosabatlarini o'rnatish tamoyillari va talqinlari hamma leksik bazalarida turlicha va o'rganilgan manbalarda ham mushtarak me'yor mavjud emasligi kuzatildi. Shunday bo'lsa-da, meronimik (partonimik) munosabatda butun va qismni bog'lovchi belgi ularning bir xil funktsiya bajarishi bilan belgilanishini qayd etib joiz.

Uchinchi bobning “*Ontologik lug'atlarda gipo-giperonim munosabatlari*” nomli bo'limida jins va tur munosabati tadqiq etilgan. Tilning lug'at boyligini tizim (sistema) sifatida o'rganishda leksemalarning gipo-giperonimik munosabatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega: u tabiat va jamiyatdagi narsa-predmetlarning, voqea-hodisalarning tildagi nomlari bo'lgan leksemalarning ma'nolarini va shu ma'nolar orqali borliqdagi narsa-hodisalarning o'zlari haqidagi tushuncha-tasavvurlarni umumlashtirish va farqlash imkonini beradi⁷². Shuningdek, leksik turkumlash natijasida yuzaga kelgan so'zlarning giponimik bog'lanishlari lug'atni iyerarxik tashkil etishning eng muhim usuli sifatida qaraladi.⁷³

Giponimiya hodisasi fransuz tilshunosi Dj. Layonz, Sh. Balli, V.G. Gak; rus tadqiqotchilaridan Yu.N. Karaulov, A. Vejvskaya, D.N. Shmelev, A.A. Ufimseva,

⁷¹ <https://www.greelane.com/ru/what-is-a-meronym-1691308/>

⁷² Bu haqda qarang: Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982, – С.136-142.; Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995, 111-123-b.; Qo'chqortoyev I. So'zlarning leksik-semantik to'dalari haqida. // ToshDU ilmiy asarlari, 359-chiqishi. – Toshkent, 1969.; Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. – Тошкент, 1991.; Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке. АКД. – Тошкент, 1990.

⁷³ Котцова Е.Е. Гипонимические связи глаголов и существительных в лексической системе русского языка. // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2011. № 6 (2), – С. 324-327.

L.A.Novikov, M.V. Nikitin, Ye.Ye.Kotsov tomonidan keng tadqiq etilgan.⁷⁴ O‘zbek tilshunosligida giponimik munosabatlarning ajratilishi va keng jamoatchilik hukmiga havola etish Rohatoy Safarovaning ilmiy tadqiqotlari bilan bog‘liq. Ushbu ishda jins-tur munosabatlari o‘zbek tilida ilk bor tadqiq etilgan⁷⁵. R.Safarova o‘zbek tilida 1000 ga yaqin hayvonlar nomini o‘nta mazmuniy guruhga ajratib, ular o‘rtasidagi giponimik (jins-tur) munosabatlarni ochib bergan. Shuningdek, D.Ahmedova o‘z tadqiqotida atov birliklarini teglashda leksik-semantik munosabatlarning o‘rni borasida to‘xtalib o‘tgan. Bu borada qilingan tadqiqotlarni tahlilga tortgan.⁷⁶

So‘zlarning giponimik qatori giperonim va giponimdan iborat. Tarkibi kengroq so‘zni giperonim, tor mazmundagi tegishli so‘zni giponim deb atashadi: idishlar (giperonim), tarelka, chashka (giponimlar). Yanayam aniqroq aytganda, giperonim jins, ya‘ni dominant yohud A.Nurmonov aytganlaridek, uya; giponim – ma‘lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi hamda o‘zining semantik tarkibida jins ma‘nosini ifodalovchi so‘zni birliktirib kelgan, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy, ammo o‘z o‘rnida qaram bo‘lgan lug‘aviy birlik, uyadosh.

A.Sobirovning fikricha, jins-tur (giper-giponimik) munosabati leksik sathdagi semantik maydonlarning asosini tashkil qiladi. Uzv (a‘zo)larni uyalarga, uyalarni ulardan kattaroq to‘dalarga, to‘dalarni guruhlarga, guruhlarni semantik maydonlarga birlashtirish chog‘ida jins-tur munosabati yuzaga chiqib boraveradi.⁷⁷ Ayon bo‘lganidek, kichikroq narsalar o‘zidan kattaroq narsalarning ichiga darajama-daraja kirib boraveradi. Paradigma ichidagi har bir leksema giponimlik mavqeiga ega bo‘ladi. O‘z navbatida har bir giponim bir qancha leksemalarni bir yerga jamlay oladi va u jamlangan guruh ichida boshqalariga nisbatan giperonim bo‘lib qoladi.

giperonim (jins / uya)	giponimlar (tur / uyadosh)
<i>nasr</i>	<i>qatra, felyeton, ocherk, novella, qissa, povest, roman</i>
<i>nazm</i>	<i>g‘azal, tuyuq, ruboiy, fard, masnaviy, qasida, oq she‘r, poema, doston</i>
<i>drama</i>	<i>drama, komediya, tragediya, tragikomediya</i>
<i>adabiyot</i>	<i>nasr, nazm, drama</i>
<i>san‘at</i>	<i>Adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, kino, teatr</i>


⁷⁴ Уфимцева А.А. Семантика слова // Аспекты семантических исследований. М., 1980. С. 5-80; Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения (Семиологическая грамматика). М., 1981. – 360 с.; Новиков Л.А. Семантика русского языка. – Москва: Высшая школа. 1982. – С.241-243.; Никитин М.В. Основы лингвистической теории значения. – Москва: Высшая школа, 1988. – С.73-87.; Котцова Е.Е. Гипонимия в лексической системе русского языка (на материале глагола): Автор. дисс...д.ф.н. – Архангельск, 2010. – С. 10.

⁷⁵ Safarova R. O‘zbek tilida giponimiya. // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., №1. 1987.; Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале общепотребительных зоонимов): Автор.дисс.учен.ст.канд.ф.н. – Ташкент, 1990. – 20 с.; Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

⁷⁶ Ahmedova D. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. – Buxoro, 2020. – 145 b.

⁷⁷ Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004. – 104 b.

Bir tomondan, *daraxt* tushunchasi umuman, bir butun, aniq, real tushuncha sifatida *buta* va *maysa* soʻzlari bilan bogʻlanadi. *daraxt* giperonimi jins tushunchasini ifodalovchi soʻz sifatida shu jinsning turlarini ifodalovchi soʻzlar bilan bogʻlanadi. Ikkinchi tomondan, tur tushunchasini ifodalovchi lugʻaviy birlik oʻrnida qoʻllanishi mumkin, bunda *daraxt* soʻzi giponim hisoblanadi. Lekin jins tushunchasini ifodalovchi soʻz giperonim, tur tushunchasining nomini ifodalovchi lugʻaviy birliklar giponimlar oʻrnida qoʻllanganda tur maʼnosini toʻliq va aniq tarzda ifodalamaydi. Shuning uchun ham ongimizda mavjud boʻlgan tur tushunchasining tilda aniq ifodalanishiga ehtiyoj seziladi.



WordNet modelidagi har bir soʻz turkumi oʻz munosabatlar toʻplamiga ega. Eʼtibor qiladigan boʻlsak, turli kompyuter ilovalarida, aksariyat hollarda, sinonimiya, antonimiya, giponimiya (giperonimiya), meronimiya (butun-boʻlak) munosabatlari oʻzaro oʻrnatilgan otlardan foydalaniladi. Ot sinsetlari oʻrtasidagi munosabatlarning asosiysi jins-tur aloqasi⁷⁸ boʻlib, tur sinset giponim, jins sinset esa giperonim deb ataladi. Bular tranzitiv iyerarxik munosabatlar boʻlib, ularga nisbatan *is A* munosabatlar nomi ham qoʻllaniladi. Agar ingliz tilida soʻzlashuvchilar “*An X is a (kind of) Y*” tipidagi jumalarni meʼriy holat deb hisoblashsa, X sinseti Y sinsetining giponimi boʻladi deyiladi⁷⁹. Bunday holda sinsetlar oʻrtasidagi munosabatlar iyerarxik tuzilmani hosil qiladi. Jins-tur munosabatlariga tayangan iyerarxik tizimlarni yaratishda, odatda, yuqori turuvchi tushunchalarning xususiyatlari quyidagilariga meros boʻlib oʻtadi deb hisoblanadi, yaʼni merosiylik xususiyati yuzaga keladi. WordNet modelidagi otlar ana shunday merosiylikka ega iyerarxik tizim shaklida tashkil qilingan: har bir sinset uchun uning oʻziga xos turdosh tushunchasi, uning giperonimini topish maqsadida tizimli bogʻlanishlar amalga oshirilgan.

Uchunchi bobning “*Leksik maʼlumotlar bazasida antonimik munosabat turlari*” deb nomlangan boʻlimida antonimlarning tushunchalarni ifodalashiga koʻra kontrar korrelyatlar, vektorli korrelyatlar, konversivlar, pragmatik antonimlar, enantiosemiya, enantiema; tuzilishiga koʻra turli asosli va bir asosli; til va nutq nuqtayi nazaridan lingvistik (uzual) va matniy (kontekstual, nutqiy, okkazional); harakat nuqtayi nazaridan mutanosib va nomutanosib; soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari tadqiq etildi.

Dissertatsiyaning toʻrtinchi bobi “**UzNet lingvistik ontologiyasini yaratish tamoyillari**” deb nomlanadi. Unda UzNet lingvistik ontologiyasini yaratish konsepsiyasi loyihalashtirilgan, UzNet bazasida soʻz turkumlarini teglash masalasi

⁷⁸ Miller, G. Nouns in WordNet / G. Miller // WordNet – An Electronic Lexical Database. – The MIT Press, 1998. – P. 23-47.

⁷⁹ Miller, G. 1998.

yoritilgan, UzNet'da sinsetlar bazasi va sinonimayzer imkoniyati haqida batafsil soʻz yuritilgan.

“UzNet lingvistik ontologiyasini yaratishni loyihalash konsepsiyasi” boʻlimida xalqaro WordNet tizimida havolasi berilgan UzWordNet lingvistik resursi tahlil qilingan, uning ontologiya talablariga muvofiq emasligi asoslangan.

Tabiiy til tushunchalari, soʻzlar va ifodalar orasidagi munosabatlarni shakllantirishda tilning ijtimoiy tabiati bilan bogʻliq muammolar yuzaga keladi. Bundan tashqari, ontologiya tushunchalari oʻrtasidagi munosabatlarni aniq va muqim holda oʻrnatish ham tilning pragmatik jihati bilan bogʻliq qiyin masala hisoblanadi, ayniqsa, “leksik birlik – tushuncha (yoxud uning izohi)” aloqalarini tashkil qilishda ham muammolar yuzaga keladi. Bu masalada, tabiiy tildagi har bir leksik birlik (LB)ning toʻliq va mukammal izohlari shakllantirilishi talab qilinadi. Buning uchun, avvalo, (1) butun soʻz boyligi jamlanishi, (2) har bir LBning turkumi aniqlanishi va (3) oʻsha LBning aniq hamda ixcham izoh(lar)i darajalangan (yoxud asosiy tushunchani anglatishi jihatidan tartibli raqamlangan) tarzda shakllantirilishi darkor. Mazkur tamoyil umumiylik kasb etadi va aynan shu tamoyil asosida oʻzbek tili ontologiyasini shakllantirish kutilgan natijalarni beradi.

Tadqiqotimiz jarayonida lingvistik ontologiyani yaratish talablari, axborot qidiruv tezaurusini yaratish tamoyillari oʻrganilib chiqildi. Tezauruslarda bir sohadagi barcha leksik boyluk iyerarxiyasi yaratilsa, lingvistik ontologiyada butun til leksikasi tarmogʻi yuzaga kelishi zarur hisoblanadi. Shu bois tezauruslarni yaratish nisbatan muvaffaqiyatli va ontologiyaga nisbatan qisqa vaqtda amalga oshiriladi. Soʻzlar tarmogʻini noldan yaratish yoki avval mavjud boʻlganini kengaytirish esa bir necha bosqichlarni oʻz ichiga oluvchi va inson mehnatidan hamda avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanishni talab qiladigan mashaqqatli jarayondir. Shu bois Oʻzbek tili ontologiyasi – UzNet tizimini yaratish uchun konsepsiya ishlab chiqildi.

“OʻZBEK TILI ONTOLOGIYASINI YARATISH KONSEPSIYASI”

Tarkibi:

- 1. Lingvistik ontologiyani yaratishning konseptual asosi tadqiqi**
- 2. UzNet tizimi uchun leksikografik baza yaratish**
- 3. Soʻz turkumlarini teglash**
- 4. Soʻzlarning shakl va semantik munosabatini belgilash**
- 5. Sinsetlar (lugʻaviy, maʼnoviy va matniy sinonimlar)**

Har bir bosqich bir necha tarkibiy bosqichlarga ega.

Mazkur tadqiqotda konsepsiya birinchi bosqichining 1.1-, 1.2-, 1.3-qadamlari oʻz aksini topdi. Amaliy jihatdan 2.1-, 2.2-, 2.3-, 2.4-qadamlar leksikografik baza sifatida shakllantirildi. Lingvistik ontologiyani yaratish koʻpbosqichli murakkab va sinchkovlikni talab etadigan jarayon boʻlgani bois yana bir qancha tadqiqot ishlarini talab etadi. Yirik jamoa mehnati katta natijalarni beradi.

Oʻzbek tili ontologiyasi – UzNetning qoʻllanilish sohasi, uning tiplari, tili, ahamiyati, foydalanuvchilari quyidagicha: **I. Tili** – formallashtirilgan oʻzbek tili⁸⁰. **II.**

⁸⁰ Qarang: Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.

Tipi: 1) umumlashtirish darajasi bo'yicha: a) umumiy ontologiya; b) soha ontologiyalari; c) ilovalar ontologiyalari; 2) ishlab chiqish chuqurligi bo'yicha: a) glossariy; b) tezaurus; c) taksonomiyalar jamlanmasi; e) mantiqiy cheklovlar to'plami. 3) predmet sohasi bo'yicha: a) rasmiy matnlar ontologiyasi; b) bilim sohalari ontologiyasi; c) sanoat sohasi ontologiyasi; e) moddiy va nomoddiy tushunchalar ontologiyasi. **III. Qo'llanilish holati:** 1) umumiy semantik tizim; 2) bilimlarni boshqarish tizimi; 3) ta'lim texnologiyasi; 4) ekspert tizimlari; 5) tabiiy tilni qayta ishlash vositasi; 6) ilovalar integratsiyasi; 7) modellashtirish va loyihalashtirish asosi. **IV. Ahamiyati:** 1) til o'rganish asosi; 2) sun'iy intellektning birlamchi manbasi; 3) bilimlarni aks ettirish manbasi; 4) turli sohalarni integratsiyasi. **V. Foydalanuvchisi:** 1) shaxs; 2) guruh; 3) tashkilot; 4) davlat.

WordNet tipidagi lingvistik resurlar tilshunoslik an'alariga muvofiq tilning lug'at boyligini tavsiflash uchun yaratilgan. Lekin har qanday axborot tizimi nafaqat umumiy lug'at, balki muayyan fan sohalari va ularning terminologiyalari bilan ham shug'ullanadi. WordNet asosida terminologik resurslarni yaratishga urinishlar tahlil qilinganda xulosa shunday bo'ldiki, WordNet strukturasi terminologiyalarni tavsiflash uchun moslashtirilmagan. So'z turkumlarining alohida tavsifi, bir-biriga bog'liq bo'lmagan ma'nolarning juda katta to'plami, ko'p tarkibli ifodalarni kiritish tamoyillarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi – bularning barchasi WordNet modeli asosida yaratilgan terminologik resurslarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda muammolarga olib keladi. Shu boisdan har bir til tabiatiga asosan konsepsiya ishlab chiqish madsadga muvofiq sanaladi.

Mazkur bobning “*UzNet bazasida so'z turkumlarini teglash masalasi*” bo'limida sun'iy intellekt tizimini yaratishga bel bog'langan ayni damda tabiiy tilni qayta ishlashda so'zlarning turkumini aniqlash zarurligi asoslangan. Jahon kompyuter lingvistikasidan ushbu lingvo-texnik tahlilning so'zlar turkumini aniqlash – PoS-tagger, ya'ni so'z turkumlarini teglash, shuningdek, uning matnlarni avtomatik qayta ishlash jarayoni bosqichi ekanligi ma'lum. Til korpuslarini yaratish uchun boshlangan dastlabki teglash harakatlari bugungi kunga kelib, matn bilan bog'liq ko'plab dolzarb masalalar yechimini bermoqda. NLP, ya'ni tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida ham so'z turkumlarini teglash birlamchi vazifa hisoblanib, buning natijasida omonimlikni, ko'p ma'noli so'zlar semantikasini aniqlash kabi turli lingvistik noaniqlar matn tarkibida tahlil qilinishiga erishiladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *uzoq* so'ziga to'rtta izoh berilgan: 1) oraliq masofasi katta, nisbatan narida joylashgan; olis; 2) vaqt e'tibori bilan davomli katta, ko'p; 3) do'stlik, qarindoshlik, tanishlik va sh.k. jihatdan bog'lanish u qadar yaqin bo'lmagan, yaqin emas; 4) (ko'chma) bevosita aloqasi, munosabati yo'q; aloqasiz⁸¹. Badiiy asarlardagi ifoda bo'yog'i, kundalik turmushda reallashish vaziyatiga muvofiq *uzoq* so'zining qo'shimcha ma'nolari yuzaga keladi: 1) o'tgan davr (tarix); 2) kelajak haqida fikr yuritish, oqibatini o'ylab ish ko'rish (kelajak);

⁸¹ Ўзбек тилининг изохли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси (А. Мадвалиев таҳрири остида). 4-жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 268.

3) miqdorni anglatish, ko'p; 4) uzunlik o'lchovi; 5) ishga yuzaki yondashish (yuzakilik); 6) davomli emas, tez fursatda bitadi (qisqa vaqt); 7) uzoqdagi joy.

Gap bo'laklari teglarini identifikatsiyalash bir muncha qiyin jarayon⁸². Sababi o'zbek tilidagi jamiki so'zlarni universal holda 12 turkum doirasida teglash imkoniyati yo'q. So'z uning jumla tarkibida reallashish holati va N-gramma⁸³ so'zlarning semantik valentligiga binoan polifunksional bo'lishi mumkin. Masalan: "Shifoxonaga bemorni keltirishdi" va "Shifoxonaga bemor odamni keltirishdi" jumllarining 1-sida *bemor* so'zi turkumlik belgisi (kim? so'rog'iga javob berayotgan tushum kelishigidagi so'z)ga ko'ra ot turkumi, 2-jumlada esa (qanday? so'rog'iga javob beryapti) sifat turkumi vazifasidagi so'z hisoblanadi. O'zbek tili izohli lug'ati⁸⁴ da mavjud 11 000 o'zlashma so'zlardan 66 ta xuddi shunday polifunksional so'zlar aniqlandi⁸⁵.

So'z turkumlarini teglash quyidagi jarayonlarda zarur sanaladi: 1) korpusda so'zshakllarni grammatik teglashda; 2) lingvistik ontologiyada so'zning izohi va turkumlararo munosabatlarni to'g'ri hamda to'liq shakllantirishda; 3) so'zning ko'p ma'noli va / yoki omonimligini aniqlashda; 4) gapni sintaktik tahlil qilishda ahamiyatli sanaladi. Eng muhimi, ST teglari tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing / NLP) uchun eng birlamchi zaruriy lingvistik element hisoblanadi, shu bois STni teglash NLPda turli xil muammolarni soddalashtirish uchun dastlabki shart sifatida amalga oshiriladi.

O'zbek tili ontologiyasini yaratishda WordNet, EuroWordNet, BabelNet, KeNet, RuTez, RussNet tizimlari imkoniyatlari hamda biznes-jarayoni tadqiq etilib, quyidagi **to'rt tamoyilni** belgilab oldik:

1) keng qamrovlilik: o'zbek tilidagi mavjud leksik birliklar qamrab olinadi. Buning uchun barcha sohalardagi leksikografik manbalarga tayanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, qamrov imkoniyatini oshirish uchun o'zbek tili korpuslaridagi matnlarga asoslanilsa, maqsadga muvofiq. Natijada tildagi sinkretik shakllar, kvazisinonimlar, enantiosemlar, polifunksional so'zlar va polisemantik so'zlarni aniqlash imkoni oshadi, pragmatik tahlil natijasida o'zbek tili ontologiyasining lingvomadaniy ma'lumotlarni qamrab olish xususiyati yuzaga keladi.

2) formal til aspekti: tizimga qamrab olingan leksik birliklarning har biri o'z turkumiga ega bo'ladi, so'z turkumlari teglari aniq belgilanadi, lemmatizatsiya jarayoni⁸⁶ amalga oshiriladi, tildagi istisnoli holatlar bartaraf etilib o'zbek tilining formal shakli yaratiladi.

3) muvofiqlik: lingvistik ontologiyaga qo'yilgan talab asosida mutloq sinonimlarda ularning izohlari muvofiqligi belgilanadi. Kvazisinonimlar va matniy

⁸² https://en.wikipedia.org/wiki/Hidden_Markov_model

⁸³ Qarang: Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 73-77.

⁸⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A. Madvaliyev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

⁸⁵ Qarang: Qurbonova M., Abjalova M. va boshq. O'zbek tili o'zlashma so'zlarining urg'uli lug'ati. [Matn]: o'quv-uslubiy lug'at / M.Qurbonova, M.Abjalova, N.Axmedova, R.To'laboyeva. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 988 b.

⁸⁶ Qarang: Abjalova M. Tahriri va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A.Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 25.

sinonimlar esa muayyan mutloq sinonim sinsetlariga kiritilgansagina shun sinset izohiga aynan keladi.

semantik simmetriya: LO va tezauruslarni boshqa lingvistik tizim va leksikografik manbalardan farqlovchi asosiy xususiyat va ularning qimmatini oshiruvchi omil semantik munosabatlar sanaladi. Shu bois lingvistik ontologiyada har bir sinset tarkibida jins-tur, butun-bo‘lak, antonimiya, omonimiya kabi munosabatlarning o‘rnatilishi leksik birliklar o‘rtasida bog‘lanishni ta‘minlaydi. Natijada tizimda yirik tarmoqlanish vujudga kelib, axborot-qidiruv imkoniyatini oshiradi.

Ma‘lumki, o‘zbek tilida 12 so‘z turkumi (mustaqil so‘z turkumlari: ot, fe‘l, sifat, ravish, son, olmosh; yordamchi so‘z turkumlari: bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama; alohida olingan so‘zlar turkumi: modal, taqlid, undov)ga so‘z yasovchi qo‘shimchalarning qo‘shilishi natijasida 4 so‘z turkumi: ot, fe‘l, sifat, ravish yasaladi. Aniqlangan yasovchi qo‘shimchalar (337 ta: ot yasovchi qo‘shimcha 114 ta, fe‘l yasovchi 58 ta, sifat yasovchi 117 ta, ravish yasovchi qo‘shimcha 48 ta)⁸⁷ sirasida **-an** ravish yasovchi affiks hisoblanadi. Ushbu parametrdan kelib chiqib xulosalash mumkinki, ot turkumiga mansub “*shaxs*” so‘ziga **-an** yasovchi qo‘shimchasi birikishi natijasida yasama ravish hosil qilingan: *shaxs (Ot) ∪ {-an}* => *shaxsan*.

Aksariyat hollarda so‘z turkumlarini teglashda quyidagi usul (metod, algoritmlarga asoslaniladi⁸⁸: 1) qoidalarga asoslangan usul; 2) stoxastik (yoxud statistik) usul.

Qoidalarga asoslangan PoS teglar. Eng azaliy teglash usullaridan biri bu qoidalarga asoslangan POS-teglash sanaladi. Bunda, asosan, Brill usuli qo‘l keladi⁸⁹. Qoidalarga asoslangan teggerlar har bir so‘zni teglash uchun lug‘at yoxud leksikadan foydalanadilar. Agar so‘zda (polifunksional, omonim, ko‘p ma‘noli so‘zlar nazarda tutilmoqda) bir nechta teglar bo‘lsa, unda qoidalarga asoslangan teggerlar gapdagi so‘zning turkumlik tegini to‘g‘ri aniqlash uchun qo‘lda yozilgan qoidalardan foydalanadi. Yanada aniq teglarni berishda so‘zning lingvistik xususiyatlarini undan oldingi va keyingi so‘zlarni tahlil qilish orqali qoidalarga asoslanib belgilash orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, qaratqich kelishigidagi ismga mansub so‘zdan so‘ng kelgan lingvistik birlik egalik qo‘shimchasini olgan ot turkumidagi so‘z hisoblanadi. Masalan, *mening kitobim, akamning uyi, Salimaning ko‘ylagi* kabi. Demak, bunday holda so‘zning ot turkumligi o‘zining oldida kelayotgan qaratqich kelishigidagi ism orqali belgilanadi. Ingliz tilidan misolga e‘tibor qaratamiz: oldingi so‘z artikl bo‘lsa, u holda undan keyin kelayotgan so‘z ot turkumiga oid leksik birlik sanaladi. Masalan, *an egg, a book, the train, the windows* kabi.

PoS teglaridagi bunday holatlar qoidalar shaklida kodlanadi. Ushbu qoidalar quyidagilarni tashkil etishi mumkin: 1. *Lingvistik me‘yorlarga asoslangan qoidalar*. Tilning orfografik qoidalarga asoslangan yuzlab qoidalar umumiy,

⁸⁷ Qarang: Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 122-123.

⁸⁸ <https://www.freecodecamp.org/news/an-introduction-to-part-of-speech-tagging-and-the-hidden-markov-model-953d45338f24/>; <https://coderlessons.com/tutorials/akademicheskii/obrabotka-estestvennogo-iazyka/pometka-chasti-rechi-pos>; <https://habr.com/ru/post/125988/>

⁸⁹ Brill E. 1992. A simple rule-based part of speech tagger //Proceedings of ANLC. – P. 154.

xususi va istisnoli qoidalar bazasi tarzida shakllantiriladi⁹⁰. 2. *Kontekstli shablon qoidalari*, ya'ni gap tarkibidagi ko'chma ma'noga ega so'zning muntazam ravishda konnotativ ma'noda qo'llanishi dastur xotirasida saqlanadi, natijada keyingi jarayonlarda o'sha konnotativ so'z bilan bog'liq noaniqliklar bartaraf etiladi.

